

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**PEDAGOGIKA FAKULTETI**  
**MUSIQA TA'LIMI VA TASVIRIY SAN'AT KAFEDRASI**



# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“O’QUVCHILARNING SHAXSIYATIDA MUSIQIY PSIXOLOGIK VA  
BALOG’AT YOSHIDAGI XUSUSIYATLARINI E’TIBORGA OLISH  
MUAMMOLARI”**

**Mallayev Nurali Sheraliyevich**

**5111100-** Musiqa ta’lim yo’nalishi bakalavr darajasini olish uchun

**Ilmiy rahbar:**

**N.Xudoyberdiyev**

**TERMIZ-2017**

**Mavzu: “O’QUVCHILARNING SHAXSIYATIDA MUSIQIY  
PSIXOLOGIK VA BALOG’AT YOSHIDAGI XUSUSIYATLARINI  
E’TIBORGA OLISH MUAMMOLARI”**

**Mundarija:**

<b>Kirish.....</b>	<b>2</b>
<b>I-bob. O’quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog’at yoshidagi xususiyatlarining nazariy asoslari .....</b>	<b>6</b>
<b>1-1.Musiqa san`atida bilim olishning psixologik jarayonlari mazmuni.....</b>	<b>6</b>
<b>1-2. Musiqa ta`limida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari.....</b>	<b>22</b>
<b>II-bob. O`quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va baolog‘at yoshidagi mutatsiya davri xususiyatlarini o`rganish ishlari.....</b>	<b>30</b>
<b>2-1.O`quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog‘at yoshidagi xususiyatlarini o`rganish .....</b>	<b>30</b>
<b>2-2. Umumta`lim maktablarida o`quvchilarning musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarini e`tiborga olish ishlari.....</b>	<b>38</b>
<b>Xulosa.....</b>	<b>56</b>
<b>Adabiyotlar ro`yxati.....</b>	<b>58</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Jamiyatimizning barcha jabhalarida qayta qurish bo'lgani kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham qayta qurish, yangilanish zarurligi namoyon bo'lib bormoqda. Hech sir emas, ta'limning an'anaviy usuli hozirgi kun talablarini qondirmay qo'ydi. Shu bois «Zamonaviy dars qanday bo'lmog'i kerak?» savol tug'iladi. Bu savol keyingi kunlarda ko'pchilik o'qituvchilarni qiziqtirmoqda.

Bugungi kunda musiqa ta'limning sifati, samaradorligi butkul o'qituvchi zimmasiga, uning izlanuvchanligi, fidoiyligi, o'z mas'uliyatini qay darajada xis etishiga va musiqiy savodxonligiga bog'liq bo'lib qoldi. *«...Педагог болаларимизга замонавий билим берсин, деб талаб қиламиз. Аммо замонавий билим бериш учун, аввало, Мураббийнинг ўзи ана шундай билимга эга бўлиши керак.»*<sup>1</sup>

Musiqa o'qituvchisi o'zi o'qitayotgan sinf o'quvchilari o'quv yili yakunida fanlardan egallashlari lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar mezonini talablari darajasida bilim, malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishiga erishishi kerak. Shunday ekan darslarni qanday usul bilan olib borish masalasini o'qituvchi ehtiyoriga berish maqul deb bilamiz. Lekin o'qituvchi aniq maqsad bilan faol va fidokorona mehnat qilishi, darsning har bir bosqichiga mas'uliyat bilan yodoshmog'i lozim. Shuningdek, o'quvchilarga puxta bilim berish va darsning samaradorligini oshirish uchun unga ijodiy va yangicha yondoshib, zamonaviy darslar tashkil qilmog'i kerak. Oshkor aytish mumkinki, hozirgi kundagi darslarimiz kundan-kunga bolalarimizni zeriktirib qo'yadigan tartibda olib borilyapti. Ko'pgina o'qituvchilar hanuzgacha o'quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog'at yoshidagi xususiyatlariga kam e'tabor berib darsni tashkil etish, o'tilgan mavzuni takrorlash va o'quvchilar bilimini baholash, yangi mavzuni bayon etish, uni mustaxkamlash va uyga vazifa topshirish bilan chegaralanib kelmoqdalar. Bunday dars hozirgi kun talabiga mutlaqo javob bermaydi. Bolalarimiz faqatgina tinglovchi bo'lib qolmoqdalar. Tayyor bilimlar o'qituvchi tomonida o'quvchilarga bayon etilmoqda. Ammo «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da kadrlar tayyorlashning milliy modelini belgilashda birinchi o'ringa

shaxs qo'yiladi. Bunda asosan o'quvchi shaxsi qolaversa o'qituvchi shaxsi, rahbar shaxsiga yangicha yondoshish, yangicha talablar ko'zda tutiladi.

Demak dars jarayonida o'quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog'at yoshidagi xususiyatlari asosida o'quvchini faollashtirish, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan qilib etishtirish lozim. Hozirgi kunda o'qituvchilardan talab etilayotgan narsa, o'quvchilarni faolligini, savodxonligini kuchaytirish, chunki faollik bor joyda onglilik bo'ladi.

Darslarni zamonaviy usulda tashkil etish uchun bir qator metodik va musiqiy-pedagogik talablarga qattiq rioya qilish lozim. Birinchi navbatda o'quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog'at yoshidagi xususiyatlarini e'tiborga olish hamda o'qituvchi amaliy jihatdan yuqori ijrochilik mahoratiga ega, nazariy va metodik tomondan yaxshi qurollangan va o'z kasbining jon kuyar fidoiysi bo'lmog'i kerak. Ikkinchidan esa, estetik did bilan ma'lum bir tizimda ishlangan ko'rgazmali qurollar va tarqatma didaktik materiallarga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, o'zi o'qitayotgan sinf o'quvchilarini o'z farzandi mehri bilan sevishi va o'z oldiga yosh avlodni kelajakning etuk hamda barkamol avlodi etib tarbiyalashdek murakkab va masuliyatli vazifa turganini unutmasligi kerak.

1-Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommaviylashtirish, yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni ma'naviy tarbiyalashning asosi bo'lmog'i lozim".<sup>2</sup>

O'quvchilarni izlanishga undash, ta'lim jarayonida hamkorlik munosabatlarini tashkil etishda zamonaviy ta'limning o'rni beqiyos. Chunki zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarga bilimlar tayyor holda berilmasdan, ularning o'zlari muammolarni hal etishga yo'naltiriladi va bu jarayonda yangi bilimlarni egallaydilar. Musiqa darslarida o'quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog'at yoshidagi xususiyatlarini yaxshi bilish o'quvchilar tafakkurini o'stirishdagi o'rnini inobatga olgan holda bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini "O'quvchilarning shaxsiyatida

musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarini e`tiborga olish muommolari.” deb tanladik.

**Bitiruv malakaviy ishimiz maqsadi** musiqiy ta'lim jarayonida o`quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarini doir bilimlardan musiqa madaniyati darslarida samarali foydalanish yo'l va usullarini ishlab chiqidan iborat.

**Tadqiqotimiz ob'ekti** musiqa madaniyati darslarida zamonaviy ta'limni tashkil etish jarayoni.

**Bitiruv malakaviy ishimiz predmeti** musiqa madaniyati darslarida o`quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarini haqidagi nazariy bilimlardan samarali foydalanish yo'llari va usullari.

**Tadqiqot maqsadiga** erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishga harakat qildik:

1. Zamonaviy musiqa madaniyati darslari mohiyatini ochib berish.
2. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar tafakkuri va uni rivojlantirish xususiyatlarini o'rganish.
3. Hozirgi kunda musiqa madaniyati darslari jarayonida musiqa o`quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarinidan foydalanish holatini o'rganish.
4. Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarini e`tiborga olish uchun vaziyatlar yaratish usullarini ishlab chiqish.
5. o`quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarini e`tiborga olishdan musiqa madaniyati darslari jarayonida foydalanishga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishimiz farazini quyidagicha belgiladik: Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar o`quvchilar musiqiy tafakkurini o'stirishda muvaffaqiyatlarga erishish mumkin, agarda o`quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarini e`tiborgaga doir nazariy va metodik bilimlar bilan qurollantirilsa;

- Musiqa madaniyati darslari barcha faoliyat turlarida o`quvchilar musiqiy idrokini oshirish uchun vaziyatlar yaratilsa;

- Musiqa madaniyati darslari barcha faoliyat turlarida o`quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarini e`tiborga olish uchun imkoniyat berilsa.

**Bitiruv malakaviy ishimiz nazariy ahamiyati** tadqiqot davomida zamonaviy musiqa ta`limi va musiqa madaniyati darslari jarayonida o`quvchilarning o`quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarga doir ilmiy pedagogik adabiyotlar va qarashlar tahlili bilan belgilanadi.

**Tadqiqotimizning amaliy ahamiyati** shundaki, izlanishlarimiz natijasida ishlab chiqilgan Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarini e`tiborga olish orqali o`quvchilar musiqiy savodxonligi oshirish metodikasidan musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishda o`qituvchilar va o`quvchilar foydalanishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishimiz metodologik asosini** shaxs tafakkuriga doir qarashlar, Prezident asarlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida suhbat, kuzatish, anketa, qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, to`rtta bo`lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

## **I-bob O'quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarining nazariy asoslari**

### **I.1. Musiqa san`atida bilim oilishning psixologik jarayonlari mazmuni**

Inson faoliyatining boshqa turlarida bo'lgani kabi, musiqa san'atida diqqat insonning barcha sensor (hissiy), intellektual (aqliy), harakatga keltiruvchi jarayonlardagi faoliyat samaradorligining muhim va zarur shartidir.

Diqqat – ma'lum paytda faoliyatning bir narsaga qaratilishidir.

Asosan ikki tur: ixtiyorsiz va ixtiyoriy diqqat mavjud. Lekin yana bir o'ziga xos turni ham ajratish mumkin – u ixtiyoriy diqqatdan keyin kelib, uzoq muddat davom etishi bilan xarakterlanadi. Bu ancha tig'iz va samarali aqliy faoliyat bo'lib, barcha turdagi mehnatga yuqori samaradorlik bag'ishlaydi.

Musiqa san'atida musiqiy faoliyatning barcha turlari diqqat bilan bog'liqdir. Ayniqsa, ommaviy ijrochilikda diqqat juda muhim. Namoyishdan avval dirijyorning ko'tarilgan qo'llari, auftakt, yakkaxon va jo'rnavor o'rtasidagi ishora va harakatlar – bularning hammasi musiqa terminologiyasida diqqat deb ataladi.

Zamonaviy psixologiyada diqqat tarkibida uning sifat xususiyatlari o'rganiladi. Bunga diqqat barqarorligi, ko'chishi, taqsimlanishi va hajmi kiradi. Shuningdek, bu sanoqqa diqqat parokandaligini, buzilishini ham kiritish mumkin.

Diqqat – bu o'quv jarayonidagi eng muhim tarkibiy bo'laklardan biridir. Barcha buyuk musiqachilar favqulodda diqqat egasi bo'lgan. Masalan, Motsart ko'pchilik bo'lgan xonada hamda begona ovozlari eshitilib turganda ham xotirjamlik bilan musiqa yoza olgan. Polshalik pianinochi va kompozitor I.Gofman maqsadga muvofiq yagona ish uslubi haqidagi savolga: diqqatni jamlash – omad alifbosidagi birinchi harf, deb javob bergan. Rus kompozitori va pianinochisi N.Metner bo'lsa: «Ish boshlashdan avval yaxshilab diqqatni jamlash hamda nima va qanday qilishni bilish zarur, shunda musiqachi kamroq toliqadi va charchaydi», - degan edi.

I.Gofman shunday degan: «Ish to'la aqliy diqqat jamligida bajarilgandagina serunum bo'ladi». Biroq «shu narsani esda tutish kerakki, mashg'ulotlarda miqdoriy tomon faqat sifat tomoni bilan qo'shilgandagina ma'no kasb etadi».

E'tiborlilik, diqqatni jamlash qancha muddat ishlash kerak, degan savolga chek qo'yadi. I.Gofman har yarim soatdan so'ng tanaffus qilishni va hech qachon tanaffussiz bir yoki ikki soat ishlamaslikni tavsiya qilgan.

L.Barenboym tomonidan (V.I.Petrushinning «Muzikalnaya psixologiya». M. 1997, 121-122-betlar) musiqachilar uchun diqqatni takomillashtirish mashqlari taklif etilgan edi. S.Stanislavskiyning ta'kidlashicha, aktyor diqqati, agar u o'zining kundalik ishida iloji boricha e'tiborli va intizomli bo'lsa, o'z professional ishiga tushunib va mas'uliyat bilan yondoshsa, maxsus mashqlarsiz ham takomillashishi mumkin. Shuningdek, barcha musiqachilar diqqatning shakllanishida o'zini tashqaridan turib eshita olish qobiliyati g'oyat muhim hisoblanishini ta'kidlashgan. Shuning uchun ham musiqachining chalayotgan narsasini nazorat qila olishi, o'zini tashqaridan eshita olishi – musiqa san'atining asoslaridan biridir.

Musiqachining diqqati turlicha: keng va tor, kech qoluvchi va ilgari ketuvchi bo'lishi mumkin. Harakatlarning avtomatlashuvi diqqatning bir yerga jamlanishiga yordam beradi.

Biz o'zimizni o'rab turgan olamni sezgi organlarimiz va his qilish orqali bilamiz va kerakli axborotni olamiz.

Sezgi – narsa va hodisalarni sezgi a'zolari orqali His qilishning oddiy psixik jarayonidir.

Sezgi organlari bilan muvofiq tarzda sezgining ko'rish, eshitish, hid, ta'm, teri, mushaklarni harakatga keltiruvchi va organik sezgi turlari mavjud. Musiqa san'atida eshitish, taktil (paypaslab), ya'ni qo'l tegizib his etish, harakat va ritmik sezgilar katta ahamiyatga ega. Xonandalar, damli (puflama) va torli musiqa cholg'ulari sozandalari uchun ovozga o'ziga xos to'lalilik va ohang bo'yoqdorligini ta'minlovchi vibratsion sezgi ham katta ahamiyatga ega. Sezgi qonuniyatiga ularning sifati, tezligi, davomiyligi va fazoviy lokalizatsiya kabi xususiyatlarini ham kiritish mumkin. Eshitish sezgisi asosida musiqachilarda ichki eshitish va musiqiy eshitish xususiyatlari rivojlanadi. Bizning analizatorlarimiz moslashuvchanlik qobiliyatiga ega, ya'ni qo'zg'atuvchi ta'sirga ko'nika oladi. Uzoq muddat baland ovozda musiqani tinglagandan so'ng biz «piano» yoki «metsso-forte» ovoz kuchidagi nozik



o'zgarishlarni kam his etamiz. Uzoq vaqt sukunatda bo'lgach esa, biz hatto o'rta kuchdagi ovozni ham baland ovozdek qabul qilamiz. Masalan, Shopen kuyni hech qachon baland chalmagan. Lekin u piano, pianissimo, mezzo-forte bobida tengsiz ijrochiligi hisobiga ohangdorlikka erishgan.

Sezgilarning o'zaro ta'siri asosan ikki: sensibilizatsiya va sinesteziya jarayonida sodir bo'ladi. O'zaro ta'sir jarayonida bir analizatoridagi sezuvchanlikning ortib ketishi «sensibilizatsiya» deb ataladi. Masalan, agar balet musiqasini radio orqali emas, teatrdan eshitsak u yaxshiroq va to'liqroq qabul qilinadi, ya'ni ko'rish va eshitish analizatorlarining uyg'unlashishi qabul qilish jarayonini yanada boyitadi.

Sinesteziyaga shunday sezgilarning o'zaro ta'siri kiradiki, ularda qo'zg'alish ta'siri ostida bir analizatoridan boshqa bir analizatorga xos bo'lgan sezgi paydo bo'ladi. «Nozik did», «qichiq rang», «shirin tovush» kabi iboralar bundan dalolat beradi. Ko'rish-eshitish sinesteziyasi hodisasi nisbatan ko'proq uchraydiki, u rangli eshitish fenomeni sifatida mashhurdir. Bunday eshitish turi Rimskiy-Korsakov, Skryabin, Chyurlyonida bo'lgan.

Rimskiy-Korsakov har xil ohanglarni tabiatga xos bo'lgan ranglar koloritida qabul qilar edi. Lya major ladi yuzasidan u shunday degan edi: «Bu yoshlik, bahor ladi – biroq muzli, taqir yerli erta bahor emas, balki nastarin guli gullagan, butun o'tloq gullar bilan qoplangan paytdagi bahor. Bu tong biroz yorishgan, lekin butun sharq qirmizi va oltin rangga kirib ulgurgandagi tong shafag'ining ladi».

Misol uchun, Skryabin musiqa amaliyotida birinchi bor simfonik partituraga rangli eshitish, nurli musiqa (svetomuzika) bilan bog'liq bo'lgan maxsus rang turkumini olib kirgan. («Prometey», «Olov poemasi», 1910).

Litva kompozitori Chyurlyonis (1875-1911) o'z rassomlik ijodini musiqa san'ati bilan bog'lagan. Shuning uchun ham o'zi chizgan suratlarga «Bahor sonatasi», «Quyosh sonatasi», «Prelyudiya» va «Fuga» kabi musiqiy nomlar bergan. Shuningdek, O'zbekiston kompozitori G.Mushel (1909-1989) ham o'zi chizgan suratlarga «Peyzaj do major», «Peyzaj re major» yoki «BaHoriy qo'shiq», «Samarqand laddagi fuga» kabi musiqiy nomlar bergan.

Nemis olimi G.Gelmgols (1821-1894) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar («Ucheniye o sluxovix oHuHeniyax kak fiziologicheskaya osnova teorii muziki», Spb., 1875, «O fiziologicheskix prichinax muzikalnoy garmonii», Spb., 1896) yagona ovoz murakkab tabiatga ega ekanligini va uni tarkibiy qismlarga bo'lish mumkinligini ko'rsatdi. Buning uchun spektrometr deb atalgan moslama yaratilgan bo'lib, ovozni uni tashkil etayotgan sadolarga ajratib chiqadi. Ovoz spektrida qo'shimcha sadolar guruhidan iborat alohida ko'tariluvchi avjlar «formantalar» deb ataladi. Ovoz jilodorligi aynan ularning tarkibiga bog'liq.

Ovoz jarangdorligi va ulug'vorligi sezgisi unda yuqori ashulachilik formantalar mavjudligidan dalolat beradi. Past ovozda formanta esa ovozga «metall» deb ataluvchi o'ziga xos va yuqori baholanuvchi sifatni baxsh etadi. Shuningdek, past ashulachilik formantasi ham mavjud. U ovozga yumshoqlik, quyuslik, mayinlik, kenglik, tovlanish hissini beradi. Musiqa cholg'ularining tovushlari ham o'z bo'yoqlariga ega. Bu esa u yoki bu asarning o'ziga xosligini yetkazib berish uchun zarurdir.

Musiqa san'atida eshitish sezgisi asosiy hisoblanadi. Musiqiy eshitish qobiliyati – musiqani to'la-to'kis qabul qila olish qobiliyatidir. Fiziologik jihatdan eshitish – bu eshitish organlari orqali tovush tebranishlarini qabul qilishdir. Tovushlar tashqi quloq orqali eshitish nervlari (3000 ta atrofida deb hisoblanadi, bitta oktavaga 300-400 ta to'g'ri keladi) vositasida o'rta va ichki quloqdan o'tib, bosh miyadagi eshitish analizatorlariga yetib boradi. Shuningdek, analizatorlar ayrim musiqi cholg'ularining chalinishi (skripka, alt, damli cholg'ular), ff da ovoz chiqarish va odamning gapirishi va kuylashi jarayonida bosh miya suyagining tebranishi orqali ham ovoz qabul qiladi.

Musiqiy eshitish qobiliyati ovoz past-balandligi, kuchi, tembri va davomiyligini yaxshi ilg'aydi. Eshitish sezgisining chegaralari: eng past tovushlar «do» subkontraktavagacha 16 gers (1 soniyada 16 ta tebranish) atrofida tebranish chastotasiga, eng yuqorilari – yettinchi oktavaning «mi bemol» 20000 gers (1 soniyada 20000 ta tebranish) atrofida. Mazkur chegara diapazonidan tashqaridagi tovushlar (infratovushlar – pastdagi va ultratovushlar – yuqoridagi) umuman qabul qilinmaydi. Musiqiy eshitish qobiliyati past-balandlik, kuch, tembr o'zgarishlarini

o'rtida registrda yaxshiroq ilg'aydi. Bunda musiqachilar 5-6 sent (butun tonning 1/20 qismi atrofida: 1 sent – butun tonning 1/100 qismi atrofida) va bir detsibel (tovush kuchi balandligi birligi) balandlikdagi o'zgarishlarni farqlay oladilar.

Musiqiy eshitish qobiliyati quyidagi turlarga ega: mutlaq, nisbiy va ichki eshitish qobiliyati.

Mutlaq eshitish – musiqiy tovushlarning mutlaq baland-ligini etalonlari (masalan, kamerton) bilan solishtirmagan holda aniqlash qobiliyati. Lekin barcha buyuk musiqachilarda ham bunday qobiliyat bo'lmagan. Masalan, Vagner, Shuman, Meyyerber, Chaykovskiy, Grig bunday iqtidorga ega emas edi, biroq yaxshi rivojlangan nisbiy eshitish iqtidoridan muvaffaqiyatli foydalanganlar. Ma'lumki, Motsart, List, Skryabin mutlaq eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan. Shuningdek, sozlovchi eshitish qobiliyati (B. Teplov atamasi) ham mavjud. U texnik faoliyat natijasi bo'lib, ovoz balandligidagi minimal (2 sentgacha) o'zgarishlarni ham farqlay olish qobiliyatidir.

Nisbiy yoki interval eshitish – kuy, intervallar, akkordlardagi tovushlar o'rtasidagi tovush balandligini sezish, aniqlash, ijro etish qobiliyatidir. Nisbiy eshitishda odam biror bir nota yoki akkordni aniqlashi yoki ijro etishi uchun hech bo'lmasa bitta tovush haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi va undan boshqasini keltirib chiqarishi, topishi kerak. Ba'zan yaxshi nisbiy eshitishni soxta mutlaq eshitish deb ham atashadi. Odam o'z ovozi yoki kamerton tovushining eng past yoki eng baland ovozini yodda tutadi va shunga tayanib, o'zi eshitgan boshqa tovushlarni aniqlaydi.

Ichki eshitish –musiqaning butun tarkibiy qismini xayolan tasavvur qilish (notalarga qarab yoki xotira bo'yicha)qobiliyati.

Psixologik tomondan musiqiy eshitish qobiliyati –musiqiy axborotning tashqi akustik ifodalanishining tahlili va sintezi, uning emotsional bahosini ifodalab berishning o'ziga xos mexanizmidir. Bu bilan bog'liq tarzda ritm, lad, kuy, ko'povozlik, tembrni his etish va boshqa eshitish turlari farq qilinadi.

Musiqiy eshitish qobiliyatining yana bir muhim tarkibiy qismi umumiy musiqiylik hisoblanadi. Bu musiqa va musiqiy kechinmalariga emotsional munosabatda ifodalanadi.

Musiqiy eshitish qobiliyati musiqiy faoliyat jarayonida rivojlanib boradi. Mutlaq eshitish qobiliyati bundan mustasno, negaki uni maxsus mashqlar orqali takomillashtirishning iloji yo‘q. Bilvosita yo‘l bilan, ya‘ni tembr yoki ovozning ma‘lum holati va boshqalar orqali tovush balandligini aniqlashga yordam beruvchi «soxta» mutlaq eshitishni (B. Teplov atamasi) rivojlantirish mumkin. Musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun maxsus mashg‘ulot darsi – solfedjio ishlab chiqilgan.

Shuningdek, musiqiy eshitish qobiliyatining zonaviy tabiati ham mavjud. Bu nazariya N.Garbuzov tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur nazariyaga ko‘ra, tovush, tembr, lad, dinamika, ritm o‘zining turli zonasiga ega. Masalan, butun ton oralig‘i (b.2) 200 sent miqdoriy ko‘rsatkichga ega bo‘ladi. Biroq 190 va 210 sent ham b.2 bo‘ladi, faqat boshqa zonada.

Aynan kuyni, bir ovozlikni his qilish tufayli xoh royal, xoh karnay yoki dutorda ijro etilgan kuyni biz tanib olamiz. Bu qobiliyat interval va lad hissini o‘z ichiga oladi. Musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha solfedjiolash jarayonida interval hissiga emas, balki lad hissiga ko‘proq tayanib mo‘ljall olishadi. Lad hissi negizida vengriyalik kompozitor va pedagog Zoltan Kodayning kuy hissini rivojlantirish tizimi yaratilgan. Bu tizim «nisbiy (relyativ) lad solmizatsiyasi tizimi» deb nom olgan (tizimda turli belgilar va bo‘g‘in nomlari qo‘llanadi).

Kuyni, bir ovozlikni his qilish qobiliyati ko‘proq ashulachilar, torli va puflab chalinadigan cholg‘u sozandalarida oson va tabiiy rivojlanadi. Fortepiano chalishni o‘rganishda uslubiyotchilar mashq etilayotgan asar kuy yo‘llarining vokalizatsiyasini, kuylanishini yoki ularni bo‘rttirib chalishni tavsiya etadilar.

Musiqiy eshitish qobiliyatining bu turi tarbiyasi bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq ovozning musiqa to‘qimasidagi harakatini eshita olish qobiliyatiga bog‘liq. Mumtoz polifoniyani eshitish qobiliyati musiqachiga jamoaviy ijroda boshqa partiyalarni eshitishga yordam beradi. Masalan, u pianinochiga asosiy kuydan tashqari boshqa barcha faktura unsurlarini – bas harakati, jo‘rovozni, polifonik asarda esa nafaqat yuqori ovozlar, balki qolgan barcha ovozlarni eshitish imkonini beradi.

Garmoniyani eshitish qobiliyati - tovushlar muvofiqligiga (interval va akkordlarga) tayanuvchi musiqiy hisdir (B. Teplovga ko‘ra). Agar polifonik his va

uning rivojlanishi musiqani gorizental bo'yicha eshitish qobiliyatiga bog'liq bo'lsa, garmonik sezgi tovushlarni vertikal bo'yicha eshita olish qobiliyatiga aloqador bo'lib, pianinotchilarda yaxshiroq rivojlanadi. Pianinochi asarning tub garmonik ma'nosiga qancha yetib borsa, – deydi atoqli pianinochi Lev Oborin, – uning ijrosi shu qadar ruhiy chuqurlashadi. Bu so'zlar boshqa barcha musiqa mutaxassislariga ham taalluqlidir.

Tembr – bu tovushlar bo'yoqdorligi. Dinamika – tovush kuchi. Tovush dinamikasi, ya'ni uning jaranglash kuchi to'g'ridan-to'g'ri tembr bilan bog'langan. Ijro bo'yoqdorligiga musiqa cholg'usining tembr imkoniyatlaridan foydalana olish hisobiga erishiladi. Ular esa, o'z navbatida, musiqachi-ijrochining o'z qo'lida bo'lgan kichik dinamik gradatsiyalarga bog'liq.

Tembr hissi turli musiqa cholg'ularining jaranglanishini muntazam eshituvchi orkestr sozandalarida yaxshi rivojlangan bo'ladi. Simfonik orkestr o'zining yigirmadan ortiq turdagi musiqa cholg'ulari bilan birgalikda boy rang-barang ovoz palitrasini qamrab oladi.

Musiqachining kasb malakasi ko'p jihatdan tembr-dinamik his rivojlanganligi, uning aniq va tiniqligiga bog'liq bo'ladi.

Musiqiy-eshitish tasavvuri – tovush past-balandligi harakatini eshitish va uni miyada gavdalantirish qobiliyatidir (B. Teplov). Ichki eshitish va musiqiy-eshitish tasavvuri tushunchasi tashqi ovozlarga tayanmagan Holda musiqani eshitish va boshdan kechirish qobiliyati bilan bog'lanib ketadi. Bu qobiliyat musiqiy xotira va musiqiy tasavvur negizining asosini tashkil etadi.

Metroritmikani his etish – musiqaning vaqtga bog'liq xususiyatidir. U ijroda va tinglashda nafaqat eshitish, balki harakat tabiatiga ham egadir.

Metroritmika hissi turli uzunliklarning uzluksiz ketma-ketligi bilan bog'liq. Ular go'yo bir tekis ritmik harakatlarni nisbatan kichik impulslar bilan to'ldirib turadi.

Ritm hissi rivojlantirish juda qiyin bo'lgan qobiliyatlardan biridir.

Nozik, aniq, tez va epchil harakat qila olish ham yuqori baholanuvchi qobiliyat hisoblanadi. Bu kuchli musiqiy eshitish qobiliyati, mustahkam musiqiy xotira va yaxshi ritm hissidir.

Barcha cholg'ularda ijro etish san'ati badiiy obraz va texnik mahorat bir butunligiga asoslanadi.

Asarni ijro etishda texnik mukammallikka erishish, harakat jarayonlarini mustahkamlashning eng yaxshi usuli – asta-sekin, aniq chalishni mashq qilishdir.

Xotira – eslab qolish, to'plangan tajribaning saqlanishi va tiklanishidir. Shuningdek, xotiraning unutish xususiyatini ham nazarda tutish kerak. Bu jarayon to'qimalar va ularning xossalari biximik o'zgarishlari bilan birga amalga oshadi. DNK-genetik, avloddan-avlodga o'tuvchi xotira tashuvchisi, RNK esa ontogonik, individual va hayotiy xotira asosi ekanligi olimlar tomonidan aniqlangan.

Xotirani uch turga bo'lish mumkin: 1) faoliyat bilan bog'liq-harakat, emotsional-obrazli va og'zaki-mantiqiy xotira, 2) xususiyatga ko'ra – ixtiyoriy va ixtiyorsiz, 3) vaqtga ko'ra – qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira. Xotira mashqi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, musiqa san'atida ba'zan turli hamda katta hajmdagi musiqiy asarlarini eslab qolishga to'g'ri keladi. Yaxshi musiqiy xotira – bu musiqiy asarning tezda va uzoq muddatga yodda saqlanib qolishidir.

Motsart, List, Anton Rubinshteyn, Raxmaninov, Toskaninilarning musiqiy xotirasi kuchli bo'lgan. Ular asosiy musiqiy adabiyotlarni yod bilgan. O'zbek musiqasi namoyandalaridan Yunus Rajabiy «O'zbek xalq musiqasi», «Shashmaqom» kabi ko'p jildlik to'plamlarini xotirasiga tayanib yaratgan. Hofizlar san'ati ham bunga misol bo'la oladi. «Hofiz» so'zi «xotirali» deb tarjima qilinadi.

Ma'lumki, musiqiy ijrochilikda yoddan chalish musiqachining ijrochilik imkoniyatlarini kengaytiradi. R.Shuman nota bo'yicha har qanday erkin ijro etilgan akkord yoddan ijro etilganining yarmicha ham jaranglamaydi, deb hisoblagan.

Musiqiy xotirani quyidagi turlarga ajratish mumkin: harakat, emotsional, ko'rish, eshitish va mantiqiy xotira. Har bir musiqachi individual qobiliyatlariga bog'liq Holda o'zi uchun qulayroq bo'lgan xotira turiga suyanadi.

Musiqashunos A.D.Alekseyevning hisoblashicha, musiqiy xotira – eshitish, harakat, mantiqiy, ko'rish va boshqa xotira turlarini o'z ichiga olgan sintetik tushuncha.

Pedagog va pianinochi S.I.Savshinskiyning aytishicha, «pianinochi xotirasi komplekslidir – u ham eshitish, ham ko‘rish hamda mushakli harakat».

Musiqiy xotira muammolari bo‘yicha ingliz tadqiqotchisi L.Makinnon shunday yozadi: «Yod olish jarayonida eng kamida uch xil xotira turi hamkorlik qilishi kerak: eshitish, taktil va motorli. Ular bilan bog‘langan ko‘rish xotirasi faqat mazkur o‘ziga xos kvartetni u yoki bu darajada to‘ldiradi».

Hozirgi kunga kelib musiqiy ijrochilik nazariyasida eshitish va motorli tarkibiy qismlarning birligi ijro xotirasining eng ishonchli shaklidir, degan nuqtai nazar o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Quyidagilar musiqiy xotiraning rivojlanishida katta ahamiyatga ega: asarning taxminiy tahlili, asarni o‘rganish va yaxlit ijro jarayonida ongli fikrlash. Tahliliy yondashuvning muhimligi, asarni tushunish uning eslab qolinishi uchun muhimdir.

Zamonaviy psixologiyada matnni eslab harakat qilish uch guruhga bo‘linadi: ma’noviy guruhlanish, tayanch ma’noli qismlarning aniqlanishi, mutanosiblik jarayoni.

Tafakkur – kishi ongida borliqning uning tahlili va sintezi bilan aks etish jarayonidir. Tafakkur hissiy bilish (his etish, idrok etish) vositasida va uning chegaralaridan chiqqan holda amaliy faoliyat asosida yuzaga keladi. Tafakkur aniq bilimlar, dalillarga suyanadi, tahlil qiladi, qiyoslaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi.

Tafakkur muammolarini ilmiy, falsafiy o‘rganish bilan bilish nazariyasi – gnoseologiya shug‘ullanadi. Tafakkurni ikki fan mantiq va psixologiya tadqiq etadi.

Mantiqda tafakkurning mantiqiy shakllari o‘rganiladi – tushunchalar, fikrlar, xulosa chiqarishlar.

Umumiy psixologiyada tafakkurning quyidagi turlari tavsiflanadi: ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli va abstrakt, mavhum (umumiy, nazariy). Mustaqillik, o‘ziga xoslik, kenglik, ixchamlik, tezlik kabilar tafakkurning individual o‘ziga xos jihatlaridir.

Musiqiy tafakkur musiqiy his, musiqiy idrok asosida paydo bo‘ladi va ovoqli, musiqiy, badiiy obrazlarga tayanadi.

Musiqiy tafakkur – musiqiy madaniyat o‘ziga xosligi, qonuniyatlarini bilishning spetsifik, intellektual jarayoni va musiqiy san’at asarini tushunishdir.

Musiqiy tafakkurning o‘ziga xosligi musiqiy qobiliyatning rivojlanganligiga, shuningdek, inson yashab tarbiyalanayotgan musiqiy muhit shart-sharoitiga bog‘liq. Sharq va g‘arb musiqiy madaniyatlari orasidagi tafovutlarni alohida ta’kidlash joiz.

Sharq musiqasi uchun monodiyaga asoslangan tafakkur: ko‘plab lad ko‘rinishlari (80 dan ortiq), chorak tonli, nimchorak tonli, glissando usullarining qo‘llanilishi, ritm tuzilishining boyligi, tovushlarning notemperatsiyaviy munosabati, tembr va kuy xilma-xilligidan foydalanish bilan musiqiy tafakkurni gorizontal rivojlantirish, xosdir.

Yevropa musiqa madaniyati uchun esa gomofon-garmonik tafakkur: garmonik ketma-ketlik harakati mantiqi bilan bog‘liq musiqiy tafakkurni vertikal rivojlantirish xosdir.

Musiqiy tafakkur qadim zamonlardan buyon o‘rganib kelinadi. Pifagorning monoxord ustida olib borgan tajribalari jarayonida kashf etgan musiqiy ovozlarning o‘zaro munosabatlari tizimi, aytish mumkinki, musiqiy tafakkur fanining rivojini boshlab berdi.

Musiqa san’atida ko‘rgazmali-harakatli tafakkurga ijrochi, pedagog, ma’rifiy ishlarni olib boruvchilar faoliyatini kiritish mumkin. Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur tinglovchi idrokining xususiyati bilan bog‘liq. Mavhum (nazariy, abstrakt-mantiqiy) tafakkur bastakor, musiqashunos faoliyati bilan bog‘liq. Musiqa san’atining o‘ziga xosligi bilan bog‘liq ravishda, musiqiy tafakkurning yana bir turini ajratib ko‘rsatish mumkin – bu ijodiy tafakkur.

Musiqiy tafakkurning barcha turlari ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega, ya’ni ma’lum bir tarixiy davrga tegishli. Ana shu tarzda turli davrlar uslubi paydo bo‘ladi: qadimgi polifonistlar uslubi, Vena klassiklari uslubi, romantizm uslubi, impressionizm va boshqa uslublar. Musiqiy tafakkurning individualligini u yoki bu kompozitor, ijrochiga xos bo‘lgan musiqiy fikrlarni ifodalash usulida kuzatishimiz mumkin. Har bir san’atkor, u hatto jamiyat tomonidan tavsiya etilgan yo‘nalish uslubi doirasida harakat qilsa ham, takrorlanmas o‘ziga xoslikka ega.



Musiqiy tafakkur bevosita badiiy obrazning tug‘ilishiga bog‘liq. Zamonaviy musiqa psixologiyasida musiqiy asardagi badiiy obrazga uch – moddiy, ruhiy va mantiqiy ibtido birligi sifatida qaraladi. Moddiy ibtidoga nota matni, akustik o‘lchamlar, kuy, garmoniya, metroritm, dinamika, tembr, registr, faktura; ruhiy ibtidoga – kayfiyat, tasavvur, ifoda, iroda, hissiyot; mantiqiy ibtidoga – shakl, janr, mazmun kiradi. Kompozitor, ijrochi, tinglovchi ongida mana shu barcha musiqiy obrazlarning ibtidosi bor bo‘lgandagina biz haqiqiy musiqiy tafakkur haqida gapira olamiz.

Musiqiy faoliyatda tafakkur asosan quyidagi jihatlarga bog‘liq: asarning obraz qurilishi – bo‘lishi mumkin bo‘lgan assotsiatsiyalar, kayfiyat va ular ortida turgan fikrlarni o‘ylab ko‘rish; asarning musiqiy to‘qimasi – garmonik tuzilishida fikrlar rivoji, kuy, ritm, faktura, dinamika, agogika, shakllanish mantig‘ini fikrlab ko‘rish; fikr va hissiyotlarning musiqa cholg‘usi yoki nota qog‘ozida mujassamlashishining mukammal yo‘llari, usullari va vositalarini topish.

Ko‘pchilik musiqachi-pedagoglarning fikricha, zamonaviy musiqa ta’limida ishtirokchilarning professional ijrochilik qobiliyatlari, mashqi ustunlik qiladi, bunda esa boyituvchi va nazariy sifatlarga ega bilimlarning to‘planib borishi juda sekin kechadi. Musiqiy tafakkurning rivojlanishiga faol ko‘maklashuvchi musiqiy va umumiy intellektual dunyoqarashni kengaytirish yosh musiqachining doimiy ishi bo‘lishi lozim, negaki bu uning kasbiy imkoniyatlarini oshiradi.

Eng umumiy ko‘rinishda musiqiy fikrning mantiqiy rivojlanishi B.V.Asafyevning mashhur formulasi bo‘yicha – boshlang‘ich impuls, harakat va yakunni o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich impuls ekspozitsiya yoki bayon deb nomlangan bir yoki ikki mavzuning o‘tkazilishida mujassam bo‘ladi.

Bayondan so‘ng musiqiy fikrning rivoji boshlanadi va bu o‘rinda foydalaniladigan oddiy misollardan biri – qaytarish va qiyoslash.

O‘zgartirish va almashinish musiqiy fikr rivojiga boshqa bir misol bo‘lib hisoblanadi.

Ilgari surish – bu qiyoslashning shunday turiki, unda har bir qo‘shni bo‘lim avvalgi unsur va unga ab-bc-cd formulasi bo‘yicha yangi davom saqlanib qoladi.

Kuchayuvchi siqish, qisqartirish – bu asarning oxirida yoki davomida dinamikaning oshishi, sur'atning tezlashuvi, garmoniyaning tezroq almashinishidir.

Kompensatsiya (qoplash) – asarning bir qismi boshqa bir qismini xarakter, temp, dinamikada qoplashi, tenglash-tirishidir.

Taniqli pedagog M.I.Maxmutovning umumpedagogik konsepsiyasiga asosan ishtirokchilardagi tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishdagi muammoli vaziyatlar quyidagilar orqali yuzaga kelishi mumkin:

- a) ishtirokchilarning nazariy izohni talab qiluvchi hayotiy hodisalar, faktlar bilan to'qnash kelishi;
- b) amaliy ishlarni tashkil etish;
- v) ishtirokchilarga shu hodisalar haqidagi avvalgi hayotiy tasavvurlariga qarama-qarshi hayotiy hodisalarning ma'lum bo'lishi;
- g) gipotezalar shakllanishi;
- d) ishtirokchilarni mavjud bilimlarni qiyoslash, solishtirish va qarama-qarshi qo'yishga undash;
- ye) ishtirokchilarni yangi faktlarni taxminan umumlashtirishga undash;
- j) tadqiqiy vazifalar.

Musiqiy ta'lim vazifalari uchun muammoli vaziyatlar quyidagicha ta'riflanishi mumkin:

- asardagi bosh intonatsion mag'izni ochib berish;
- musiqiy asarning uslubiy yo'nalishini eshitish orqali aniqlash;
- ma'lum bir kompozitor musiqasidan parchani boshqa kompozitorlar asari orasidan topish;
- ijrochilik uslubining xususiyatlarini ochib berish;
- musiqaga mos did, hid, rang, adabiyot, surat tanlash va boshqalar.

Ijrochilik jarayonida tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

- turli tahrirdagi ijrochilik rejalarini taqqoslash;
- musiqiy fikr rivojlanadigan yetakchi intonatsiya va tayanch nuqtalar topish;
- asarning bir necha ijro rejasini ishlab chiqish;

- asarni har xil xayoliy cholg'ulashtirish bilan ijro etish;
- asarni har xil xayoliy rangda ijro etish.

Musiqqa yaratish jarayonida tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

- general-bas, burdon, ritmo-ostinato asosida garmonik yo'lni melodik rivojlantirish;
- tanish qo'shiqlarni yoddan eslab ijro etish;
- berilgan emotsional holat yoki badiiy obrazga oid tonal va atonal xususiyatga ega pyesalarni improvizatsiya qilish;
- musiqada nutqiy, oddiy, hayotiy dialoglarni ifoda etish;
- turli tarixiy davrlar, uslub, xarakterlarga oid improvizatsiyalar;
- ayni asarning uslubiy, janr xilma xilligi.

Musiqiy asar aynan uch ko'rinishda mavjud bo'ladi: kompozitor tomonidan yozilgan nota matni, bu yozuv asosida ijrochi tomonidan yaratilgan jonli ijro, musiqadagi badiiy obrazlarning tinglovchi hayotiy tajribasi bilan o'zaro ta'siri (yaratish, ijro etish, tinglash – B.V.Asafyevga ko'ra). Bu faoliyat turlarining barchasi – musiqqa yaratish, uni ijro etish, qabul qilishda – sifatli musiqiy faoliyatni ta'minlovchi tasavvur obrazlari albatta ishtirok etadi.

Musiqiy asarni yarata turib kompozitor xayoliy ovozlarga tayanadi, ularni rivojlantirish mantig'ini o'ylab chiqadi, musiqqa yaratish jarayonidagi hissiyot va fikrlarni eng yaxshi holatda yetkazib beruvchi ohanglarni tanlaydi.

Ijrochi kompozitor tomonidan berilgan matn bilan ishlay boshlaganda uning texnik mahorati musiqiy obrazni yetkazib berishning asosiy vositasi bo'lib chiqadi. Uning yordamida esa ijrochi kerakli temp, ritm, dinamika, agogika, tembrni topadi. Ijro muvaffaqiyati ko'pincha ijrochi musiqiy asar obrazini qanchalik yaxshi his qilishi va tushunishiga bog'liq bo'ladi.

Agar tinglovchining tasavvurida musiqqa tovushlari asar ruhiga mos hayotiy vaziyatlar, obrazlar, assotsiatsiyalarni shakllantira olsa, u kompozitor va ijrochi ifodalamoqchi bo'lgan narsani tushuna oladi. Ko'pincha boy hayotiy tajribaga ega, ko'p narsani boshdan kechirgan kishi alohida musiqiy tajribaga ega bo'lmasa ham,

musiqiy tayyorgarlikka ega, biroq hayotiy tajribasi kam odamga nisbatan musiqaga chuqurroq munosabat bildiradi.

Bilamizki, bir hayotiy mazmun kompozitorlar tomonidan ularning individualligi, uslubi va yashagan davriga bogʻliq ravishda turlicha gavdalantiriladi. Yer yuzining turli qitʻalarida qaygʻu va quvonchning farqi yoʻq. Lekin bu tuygʻularning musiqadagi ifodasi koʻpincha tarixiy taraqqiyot tamoyillariga muvofiq boʻladi.

Bitta musiqiy asarni tinglagan ikki kishi oʻz hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda uni turlicha tushunishi, baholashi va unda turli obrazlarni koʻrishi mumkin.

Musiqani eshitish, ijro etish va yaratishga oid bu xususiyatlarning barchasi tasavvurning Hosilasidir. U esa ikkita odamda bir xil boʻlmaydi.

Musiqiy tasavvur faoliyati musiqiy eshitish tushunchasiga chambarchas bogʻliq. Bu tushuncha tinglash jarayonida yangrayotgan musiqqa haqida bevosita taassurot beruvchi musiqiy idrok asosida rivojlanadi. Lekin musiqiy tasavvur faoliyati ichki eshitish ishi bilan yakunlanmasligi kerak. B.M.Teplov haqli ravishda taʻkidlaganidek: «deyarli hech qachon faqat eshitish taassurotlari boʻlmaydi va u koʻrish, harakat va boshqa lahzalarni oʻz ichiga olishi kerak».

Biroq musiqiy obrazlar tilini soʻzlar bilan tarjima qilishga urinishning keragi yoʻq. P.I.Chaykovskiy oʻzining Toʻrtinchi simfoniyasi haqida S.I.Taneyevga yozgan xatida taʻkidlashicha, agar bu simfoniya soʻzlar bilan taʻriflansa, u kulgi uygʻotishi va kulguli tuyulishi mumkin. «Simfoniya, - deydi P.I.Chaykovskiy, - soʻz bilan aytib boʻlmaydigan narsani ifodalashi, lekin u koʻngildan chiqishi va aytilish kerak boʻlishi lozim». Qolaversa, kompozitor musiqani yaratgan shart-sharoitlar ham oʻrganilishi kerak. Asar uning dunyoni his etishi va u yashagan davr dunyoqarashidir va bu narsalar musiqiy asar ijrosidagi badiiy gʻoyaning shakllanishiga taʻsir qiladi.

Maʼlumki, asar dasturi, yaʼni kompozitor biror nom bergan yoki maxsus tushuntirishlar bergan dastur nisbatan yengilroq qabul qilinadi. Bu holda kompozitor uning asari bilan tanishishda ijrochi va tinglovchi tasavvurlari qay oʻzanda harakat qilishini belgilab beradi. Nodasturiy asarning dasturini topish gʻayrimusiqiydir va musiqaga xuddi tasviriy sanʼatga yondashgandek munosabatni bildiradi. Agar, dastur mavjud boʻlsa uni bilish, B.M.Teplov toʻgʻri taʻkidlaganidek, «musiqiy dasturni toʻla

va aynan qabul qilishning zaruriy sharti»dir. Buni, ayniqsa, bolalar bilan ishlashda e'tiborga olish kerak. «Agar bolalarga dasturni topish vazifasi yuklatilsa, bu ularni musiqada ma'lum bir mazmun qanday ifodalanganligini eshitish o'rniga, undan tasviriy ishoralar izlashga majbur qiladi. Bu ish oqibatda musiqaga mutlaqo ma'nosiz bo'lmaganda Ham, og'ir, ikki ma'noli, noaniq tilga bo'lgandek qarash paydo qiladi»<sup>3</sup>. Professional musiqachi uchun, G.G.Neygauz so'zlari bilan aytganda, «musiqqa – tugallangan nutq, aniq fikr... u ma'lum bir immanent (o'ziga xos – R.Q.) ma'noga ega va shuning uchun uning qabul qilinishi va tushunilishi uchun hech qanday qo'shimcha so'z yoki tasviriy izoh va aniqlashtirishlarga ehtiyoj bo'lmaydi... Shu boisdan ham ijodiy tasavvuri bor odam uchun butun musiqqa ayni choqda dasturdir (sof, dastursiz deb ataluvchi musiqqa ham!) va u hech qanday dasturga muhtoj bo'lmaydi Ham, chunki u butun mazmunni oxirigacha o'z tilida bayon etadi»<sup>4</sup>.

Hozirgi paytda musiqqa ta'limi nazariyasi va amaliyotida ta'limdagi «musiqiy cholg'ugacha» bo'lgan davrning zarurligi haqida ko'p gapirilmoqda. Bu vaqtda o'quvchilarda usiz musiqqa olamiga kirishning iloji bo'lmagan badiiy taassurotning minimum darajasi yig'ilib boradi. Bu haqda I.Gofman shunday degan: «O'quvchi har bir nota, sekvensiya, ritm, garmoniya va notalarda ko'rsatilgan barcha ko'rsatmalarni tushunib yetmaguncha klaviaturaga intilavermasa, o'ziga juda yaxshi yordam bergan bo'ladi, negaki chalish – ijrochi yaxshi biladigan narsani qo'llar yordamida ifodalab berishdir»<sup>1</sup>.

Tayyorlov davrining vazifasi nafaqat musiqiy eshitish qobiliyatini, balki o'z ichiga musiqiy eshitish, harakat va ko'rish tasavvurlarini olgan barcha ijodiy tasavvur turlarini aniq bir maqsad yo'lida rivojlantirishdir. Bolalarni tayyorlov davri mashg'ulotlarida o'qish, she'r yozish, rasm chizish, naqsh solish, qo'shiqlarni sahnalashtirish va drammatizatsiya o'yinlari kabi badiiy faoliyatning turli sohalariga jalb etish muhimdir.

Musiqiy asar talqinining xilma-xilligiga dinamika, agogika, artikulyatsiya, pedalizatsiya kabi ifodaviylikning ijrochilik vositalaridan foydalanish hisobiga

erishiladi. Rivojlangan tasavvur sahna hayajonini yengib o'tishga va, umuman, musiqiy ijro sifatining yaxshilanishiga ko'maklashadi. L.A.Barenboym uyda mashq qilganda o'zini konsert zalida deb tasavvur qiluvchi pianinochini misol keltiradi. «U xayolan go'yo auditoriya oldida butun dastur yoki alohida asarni ijro etishining o'ziyoq yetarli va u nima ishonchli jaranglayapti, nima yo'q, tinglovchi u yoki bu pyesa ijrosiga qanday munosabatda bo'layotganligini biladi. Ana shunday bir necha repetitsiyadan so'ng u to'la ishonch bilan sahnaga chiqishga tayyor bo'ladi. Sahnaga chiqish uchun tayyorgarlik uslubini topgunga qadar pianinochi mutlaqo boshqa hissiyotni boshdan kechirardi: u yangi dastur bilan sahnaga chiqishga qo'rqardi»<sup>5</sup> Musiqachi-ijrochi ishi amaliyotiga aktyorlik usullarining joriy etilishi badiiy ijroning yuqori darajasini egallashga yordam beradi, undagi psixik jarayonlarning mukammallashishiga ko'maklashadi.

Ana shu tarzda, «tasavvur» mavzusi so'ngida shunday xulosa qilish mumkinki, musiqiy tasavvur faoliyati ichki eshitish jarayonida musiqiy-eshitish tasavvurlari sohasidan o'tadi. Bilamizki, musiqachi uchun dunyoni «musiqiy» anglash xosdir, u atrof-muhitdan qancha ko'p taassurot olsa, ongida shunchalik ko'p obrazlar shakllanadi. Tasavvur ishi «fikrlash» yoki «badiiy» tarzda bo'lishi mumkin, lekin har ikki holda ham kompozitor, ijrochi, tinglovchi kundalik hayotdan farqlanuvchi boshqa dunyoga o'tishni bilishi zarur. Xayoliy vaziyatlar tasavvurni rivojlantirish uchun turtki bo'lib xizmat qilishi mumkin.

## **I.2. Musiqa ta`limida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari mazmuni**

Musiqa san'ati faqat o'ziga xos bo'lgan ko'rinish va shakllarda, shuningdek, musiqiy-badiiy janrlarda, obrazlarda inson fikri, tuyg'ulari, maqsadlari, emotsiyalari va temperamentini aks ettiradi. Bunday tafovutlar musiqiy faoliyatning janri, shakli, ko'rinishlari, musiqiy asar mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Inson ruhiyatidagi dinamik ko'rinishlarning individual xususiyatlarini biz temperament deb ataymiz.

Ruhiy jarayonlarning o'tish tezligi inson temperamentida namoyon bo'ladi. Temperamentlar xilma-xilligini bu jarayonlarning o'tish sifati tarzida tavsiflash mumkin.

Gippokrat (eramizdan avvalgi V asr) kishi organizmining holati undagi suyuqliklarning (qon, zardob, safro) o'zaro mutanosibligiga bog'liq deb hisoblagan. Qismlarning tegishli tarzdagi mutanosibligi lotin tilida temperamentum deb yuritilgan.

Turli temperamentlarning nomlari shundan kelib chiqqan.

Sangvinik («sanvis» – qon) – sezilarli psixik faollikka ega odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchli vazmin tezkor turiga to'g'ri keladi.

Flegmatik («flegma» – zardob) – xotirjam odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchli vazmin sust turiga to'g'ri keladi.

Xolerik («xole» – safro) – juda serg'ayrat odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchli novazmin turiga to'g'ri keladi.

Melanxolik («melayna xole» – qora safro) – psixologik faolligi past odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchsiz turiga to'g'ri keladi.

Antik davr fanining temperamentning organik asoslari haqidagi ma'lumotlari faqat qiziqish uyg'otadi, xolos. Lekin temperamentning tipologik tuzilishi to'g'ri tasniflangan va hozirgi vaqtgacha amal qiladi.

Musiqa san'atida turli temp, dinamika, xarakterning birlashuvi asarni ijro etish jarayonida unga rangdorlik va uyg'unlik baxsh etib turadi. Musiqada asarni temperament bilan ijro etish juda muhim, bu tinglovchi idrokini faollashtiradi. Asar xususiyati ko'p holda kompozitor va ijrochi temperamentiga, ularning ruhiy holatiga

bog‘liq. O‘quvchilarning psixologik o‘ziga xosligini, temperamentini bilish pedagogga o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, zarur musiqiy o‘quv repertuarni to‘g‘ri tanlash imkonini beradi.

Jamoaviy ijro (orkestr, xor, ansamblda) uchun o‘quvchilarni tanlashda temperamentlarning bir-biriga mos kelishi, xilma-xilligiga e‘tibor berish katta ahamiyatga ega.

Xarakter – o‘zini tutishdagi o‘ziga xosliklar va biror narsaga bo‘lgan munosabat jarayonida namoyon etiluvchi shaxsning individual xususiyati.

«Xarakter» so‘zi yunon tilidan tarjima qilinganda «naqsh, alomat», ya’ni farqlovchi xususiyat, belgi, degan ma’noni bildiradi.

Inson xarakterini (yumshoq, ko‘ngilchan yoki qattiq, besabr; quvnoq yoki g‘amgin, dadil yoki uyatchan, murosali yoki murosasiz; xushmuomala, xayrixoh yoki qo‘pol, betakalluf) tashkil etuvchi individual xususiyatlar birinchi navbatda irodaga (masalan, qat’iylik yoki ishonchsizlik, qo‘rqoqlik), tuyg‘ularga (xushchaq-chaqlik, g‘amginlik) va aqlga (kaltabinlik, sermulohazalik) taalluqlidir.

Xarakterning namoyon bo‘lishi qator holatlarda amalda irodaviy, emotsional yoki intellektual qismlarga bo‘linmaydi (masalan: shubhachi, olijanob, himmatli, kekchi va boshqalar).

Inson xarakteri aksariyat holda serqirradir. U odamlarning boshqalarga, o‘z-o‘ziga, ish, narsalarga munosabatida namoyon bo‘ladi.

Agar temperament turli hodisalarga munosabatda insondagi tabiiy xususiyatlarni namoyon etsa, xarakter insonning hayotga munosabatida uning ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiradi. Temperament haqida u shiddatli, sust bo‘lishi mumkin, deb aytilsa, xarakterni qat’iyatli, mehribon, tirishqoq va hokazo, deb ta’riflashadi. Temperament va xarakterdagi umumiy jihat shuki, ularning har ikkalasi insonning ijtimoiy qadr-qimmatini bildirmaydi. Murosasiz xolerik umumahamiyatga ega oliy maqsadlar uchun kurashishi, yumshoq qat’iyatsiz melanxolik esa pastkash bo‘lib chiqishi mumkin.

Temperamentning har bir turining kuchli va ojiz tomonlari mavjud. Tarbiya jarayonida temperamentning kuchli taraflariga suyanib, ojiz taraflarini neytrallashtirib,



hayotda o'z o'rnini topa oladigan ijtimoiy qiymatga ega xarakter shakllantiriladi. Ana shu tarzda xarakter rivojlanish va mukammallashish xususiyatiga ega bo'ladi. A.Navoiy shunday degan:

*Tabiatga har neki odat bo'lur,*

*Chu eskirdi odat tabiat bo'lur.*

Tipik xarakter tipik temperament asosida rivojlanadi, biroq xarakterning tarkibiy qismi temperament tarkibiy qismiga nisbatan kengroq.

Shaxsiy xususiyatlarning belgi va o'ziga xos jihatlari Har xil musiqachilar hayoti va ijodida turlichadir. Anton Rubenshteynning aytishicha, ijroga nisbatan munosabati va musiqiy asarni tushunishi bir xil bo'lgan ikkita aynan yaxshi, lekin turli temperamentli musiqachilar bo'lishi mumkin emas. Temperament va uning asosida rivojlanuvchi xarakter muqarrar tarzda nafaqat musiqachining kundalik xulq-atvoriga, balki uning butun ijodiga, jumladan, musiqa yaratishi, talqin va idrok etishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Buni Romantizm davrining ikki mashhur namoyandasi -Shopen va List hayoti va ijodi misolida ko'rib chiqamiz.

Shopenning xarakteri introvertiv (o'z-o'ziga biqingan), Listniki esa – ekstravertiv (ochiq) bo'lgan. Uzoq davom etgan vaqt mobaynida Shopen va List yaqin do'st bo'lishgan. Ular bir-biridan o'zlarida yetishmaydigan sifatlarni topishgan.

Zamondoshlarining xotirlashiga ko'ra, Shopen juda hissiyotli, ojiz va nozik bo'lgan. U o'z tinglovchilarini ijro nozikligi va shoironaligi, musiqiy cholg'usining nafis jarangi bilan maftun qilardi. Shopen melonxoliyaga moyil edi, xarakteridagi bu xususiyat uning ko'plab asarlari – mazurka, ballada, noktyurnlarida namoyon bo'lardi. Katta auditoriyani yoqtirmaydigan Shopen musiqani faqat bir necha yaqin do'stlari oldidagina chalib o'zini to'la to'kis namoyon qilardi. «Katta zallar meni falajlaydi», – deb tan olgan edi u maktublaridan birida.

Bir kuni Shopen va List bir bayramda ishtirok etishadi. List Shopenning noktyurnlaridan birini chaladi. Shopenga ijro yoqmaydi va u shunday deydi: «Asarni bunday chalgandan ko'ra, umuman ijro etmagan yaxshi». Shu zahotiyuq List Shopenning zo'r etyudlaridan birini ijro etadi va bu barcha tashrif buyurganlarni,

jumladan, Shopenni ham maftun etib qo'yadi. «Men konsertlar berishga yaramayman, – deydi Shopen Listga, – Lekin, bu ishni siz, siz boplaysiz. Omma iltifotini qozonmagan taqdiringizda ham, uni hayratda qoldirishga, junbushga keltirishga, zabt etishga va o'z ortingizdan ergashtirishiga sizning kuchingiz yetadi»□.

List zamondoshlarini zo'r ijrosi bilan hayratda qoldirgan. Listning do'sti, taniqli nemis shoiri Heyne uning «barmoqlari klavishlar ustida haddan tashqari quturib harakat qiladi» deydi. Heyne Listni «Atilla», ya'ni xun qabilasining yo'l boshchisi nomi bilan atar edi: «...uning kelishi haqidagi xabar tufayligina klavishlar titrab ketadi, qaltiraydi, uning barmoqlari ostida chiyillab yuboradi...», derdi u.

Boshqa bir tanqidchi List konsertlari haqida shunday fikr bildirgan: «Konsertdan so'ng u jang maydonidagi g'olib misoli turar edi... yengilgan fortepiano uning yonida pisib turardi, uzilgan torlar xuddi... yengilganlar bayrog'i kabi salqib yotardi, qo'rqib qolgan musiqa cholg'ulari uzoq burchaklarga biqinib olishardi»<sup>6</sup>. List pianizm islohotchiligida buyuk edi. Qolaversa, Heyne uning ijrosi haqida fikr bildirib, u yoxud juda ajoyib chaladi, yoxud bo'sh qozondek taraqlaydi deydi. «Momaqaldiroq – mening kasbim», – deya tan olgan List. Agar List tinglovchilarni ijrosining kuchi bilan hayratda qoldirgan bo'lsa, Shopen ularni nozik lirizm, betakror piano nyuansi bilan maftun etgan. Shopen shogirdlaridan ijroda «qo'pollik qilmay quvvatli» bo'lishni talab etgan. U qattiq tovushga toqat qila olmasdi. List Shopen haqidagi kitobida deydi: «U romantizmning kuchli va shiddatli tomonini inkor etardi, u esankiratib qo'yuvchi ta'sir va bema'ni ortiqchaliklarga toqat qila olmasdi»<sup>7</sup>. List va Shopenning har ikkalasi ham buyuk musiqachilar bo'lgan, lekin har biri o'zicha buyuk edi, har biri o'z yo'li bilan borib, dunyo madaniyatiga o'zining takrorlanmas hissasini qo'shgan. Shuning uchun musiqachining ijodiy kasbiga temperamentning qaysi turi ko'proq mos keladi, degan savolni berish noo'rindir. Musiqachi tabiatan qaysi temperamentga ega bo'lishidan qat'iy nazar, uning qo'shgan hissasi bu temperamentga bog'liq emas. Musiqa tarixida turli temperamentlarga ega bo'lgan ijodkorlar juda ko'p bo'lgan.

Qobiliyat – ma’lum bir turdagi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning subyektiv sharti bo‘lib hisoblanuvchi shaxsiyatning individual xususiyatidir. Qobiliyat – bilim, malaka va ko‘nikmalar emas, balki ularga erishish dinamikasidir. Qobiliyat faoliyat usullari va yo‘llarini egallash tezligi, chuqurligi va puxtaligida aniqlanadi.

Qobiliyat – faoliyat jarayonida namoyon bo‘luvchi imkoniyatdir. Masalan, agar inson musiqiy faoliyat uchun zarur ko‘nikmalarni egallamagan bo‘lsa, uning musiqiy qobiliyati haqida gapirish mumkin emas. Amaliyotdan misol keltiramiz: o‘qituvchi bir sinfning ikki o‘quvchisiga bir asarni topshiradi. Bir o‘quvchi bir haftadayoq bu asarni tez va bexato idrok etadi, boshqasi esa bir oydan so‘ng ham ijroda xatoga yo‘l qo‘yadi. Bunday hollarda har qanday pedagog yutuqlardagi farqni qobiliyatlardagi tafovut hisobiga kiritadi. Demak, qobiliyat deganda insonning lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikmalarni egallashida va ularni amaliyotda samarali qo‘llashida yordam beruvchi psixologik xususiyatlar tushuniladi.

Yuqorida keltirilgan nazariy holat va amaliy misollarga qaramay qobiliyat va uning rivojlanish muammosi psixologiya va pedagogikaning eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Qobiliyat sezgi analizatorlari, kuch, harakat hamda asabiy, jismoniy va aqliy jarayonlar muvofiqlashishi kabi nerv sistemasi xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan tabiiy iqtidor, iste’dod, shuningdek, tashqi ijtimoiy muhit ta’siri ostida rivojlanadi. Musiqiy ta’limni boshlash, musiqiy qobiliyatni rivojlantirish haqida G.G.Neygauz shunday degan: «Qaysidir musiqa cholg‘usida chalishni o‘rganishdan avval – u bola bo‘ladimi, katta yoshli odam bo‘ladimi – qandaydir musiqani allaqachon egallagan bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, musiqani ongida saqlashi, ko‘ngliga jo qilishi va idroki bilan eshitishi lozim. Talant va buyuklikning siri shundaki, kishi ongida musiqa u birinchi bor barmoqlarini klavishaga tegizishi yoki torni chertishidan ancha avval mavjud bo‘ladi»<sup>8</sup>.

Qobiliyatning eng yuqori darajasi «talant» deb ataladi. Talant – insonga qaysidir murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli, mustaqil va o‘ziga xos tarzda amalga oshirish imkonini beruvchi qobiliyat, tabiiy iqtidor hamohangligidir. Talant haqida xalqning o‘zida «Xudo bergan» degan gap bor. O‘z navbatida, tabiiy iqtidor, qobiliyat, talant

hayotiy, kasbiy tajriba va zo‘r mehnat bilan uyg‘unlashsa mahorat shakllanadi. Agar qobiliyatning yuqori darajada namoyon bo‘lishi «talant» deb atalsa, talantning yuqori darajada namoyon bo‘lishi buyuklikdir. Buyuklik – bu inson ijodiy kuchining yuksak darajada namoyon bo‘lishi. Nemis faylasufi Shopengauer bu haqda shunday deydi: «Hech kim tekkinga olmagan mo‘ljalga tekkizgan mergan – talantdir, hech kim ko‘rmagan mo‘ljalga tekkizgan mergan – buyukdir».

Qobiliyat masalasidagi markaziy muammo uning irsiyligi, tug‘maligidir. Platon inson qobiliyatlari tug‘ma ekanligini aytgan va inson bilgan barcha narsa uning ideal bilimlar dunyosida bo‘lgan paytidan xotiralar bo‘lib hisoblanadi, deb taxmin qilgan.

Mashhur tabiatshunos Charlz Darvinning amakivachchasi Frensis Galton o‘zining birinchi kitobi «Talantning tug‘maligi, uning qonuniyatlari va oqibatlari» (1869), shuningdek, boshqa kitoblarida ta’kidlashicha, buyuklik va iste’dod avloddan avlodga beriladi, tashqi muhit omili esa bunda sezilarli rol o‘ynamaydi.

Mashhur polyak pianinotchisi Ignatsiy Paderevskiy, aksincha, o‘zining ajoyib pianinotchilik yutuqlarining siri nimada ekanligi haqidagi savolga javob bera turib aytadi: «Bir foiz talant, to‘qqiz foiz omad va 90 foiz mehnat».

Taniqli amerikalik kashfiyotchi Tomas Edisonning buyuklik – bu 99 foiz mehnat va bir foiz ilhom degan so‘zlari mashhurdir.

Amerikalik psixolog Artur Djensen ta’kidlashicha, har bir kishi qattiq mehnat jarayonida o‘z qobiliyatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishi mumkin. Lekin qobiliyatlarni faqat ma’lum bir chegaragacha, tabiat imkon berguncha rivojlantirish imkoniyati bor. Kishi qattiq va fidokorona mehnat natijasida buyuk bo‘lib qomaydi, buyuklik unga berilgan tabiat in’omi bo‘lib hisoblanadi.

Mashhur ingliz psixologi Gans Ayzenk o‘zining ko‘p yillik tadqiqotlari natijasida shunday xulosaga kelgan, talant muvaffaqiyati tizimida genetik omillar 80 foizni tashkil etadi. Nutqiy qobiliyatlari, xotira, tasavvur, hisobga olish qobiliyatlari genetik asosga ega. 20 foizi ijtimoiy shart-sharoitlarga bog‘liq, ularga oiladagi, maktabdagi sharoit, omad va baxtli tasodiflar kiradi. Genetik va ijtimoiy omillarning bu munosabatini tajribaviy yo‘l bilan tekshirib ko‘rish mushkul.

Galton yuqorida eslatilgan kitobida ijodning bir yoki boshqa turi bo'yicha qobiliyatlar avloddan-avlodga o'tgan ba'zi oilalarni misol keltiradi. Xususan, Bax avlodlarida musiqiy iqtidor ilk bor 1550 yilda kuzatilgan va besh avloddan so'nggina I.S.Bax dahosida bir muncha kuchliroq namoyon bo'ldi. Baxlar oilasida 60 ga yaqin musiqachi bo'lgan; ularning 20 ga yaqini mashhur deb tan olingan. Motsart ajdodlari orasida 5 nafar, Gaydnada esa ikkita musiqachi bo'lgan.

Musiqiy-pedagogik amaliyotda asosiy musiqiy qobiliyatlar deganda odatda uch narsa tushuniladi: musiqiy eshitish qobiliyati, ritm hissi va musiqiy xotira.

Musiqiy eshitish qobiliyati iborasiga odatda juda keng va yetarlicha aniqlanmagan mazmun kiritiladi. Avvalo, musiqiy eshitish qobiliyati tushunchasini tovushlarning past-balandligini eshitish va tembrni his qilish tushunchasiga ajratish zarur. Negaki, musiqada tovushlar past-balandligi va ritmik harakatlar asosiy ma'no tashuvchi bo'lib hisoblanadi. Tembrli unsur juda muhim, biroq yordamchi ahamiyatga ega. Biz musiqa negizini tashkil etgan asosiy musiqiy qobiliyatlar sifatida tovushlar past-balandligini va ritmik harakatlarni idrok etish va yaratishni tushunishimiz kerak.

Musiqiy idrokning asosiy shakllarini tahlil eta turib kuy va garmoniya idrokini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular asosida 2 ta qobiliyat yotadi: a) musiqiy eshitish qobiliyatining perseptiv yoki emotsional qismi deb ataluvchi lad hissi, b) musiqiy uquvning reproduktiv yoki idrok etish qismi bo'lib hisoblanuvchi musiqiy eshitish tasavvuri qobiliyati.

Tahlil asosida uch asosiy musiqiy qobiliyatni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Lad hissi, ya'ni kuy, tovushlarning lad vazifasini emotsional his qilish yoki tovush past-balandlik harakatlari ifodaliligini emotsional his qilish qobiliyati. Bu qobiliyatni boshqacha atash mumkin – musiqiy eshitish qobiliyatining emotsional yoki perseptiv qismi (komponenti).

Lad hissi musiqiy balandliklarni, ya'ni tembr balandliklarini his etish bilan bo'linmas butunlikni tashkil etadi. Lad hissi bevosita kuyni qabul qilish, uni anglash, intonatsiyalar aniqligini his qilish jarayonida namoyon bo'ladi. U ritm hissi bilan bir qatorda musiqaga bo'lgan asosiy emotsional mehr-munosabatni tashkil qiladi.

2) Eshitish tasavvuriga qobiliyatli bo'lish ixtiyoriy tarzda ovoz balandligi harakatini aks ettiruvchi eshitish tasavvurlaridan foydalanishdir. Bu qobiliyatni, boshqacha qilib, musiqiy eshitish qobiliyatining tinglash yoki reproduktiv (ijro etish) qismi deb atash mumkin. U bevosita eshitish hissi bo'yicha kuyni eshitish, kuylash jarayonida namoyon bo'ladi. U lad hissi bilan birgalikda garmoniya hissining asosini tashkil etadi. Bu qobiliyat musiqiy xotira va musiqiy tasavvurning asosiy yadrosidir.

3) Musiqiy-ritmik his, ya'ni musiqani faol (harakatli) boshdan kechirish, musiqiy ritm ifodaliligini emotsional his etish va uni aniq ijro etish qobiliyati.

Musiqiy faoliyat uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar majmuasi, albatta, uchta qobiliyat bilan yakunlanmaydi. Lekin ular musiqiylikning asosiy negizini tashkil etadi.

Musiqiylikning asosiy belgisi – ma'lum bir mazmun ifodasini his eta olishdir. Musiqada tovushlarning past-balandligi va ritmik harakatlar asosiy mazmun tashuvchi bo'lib hisoblanadi. Tovushlar past-balandligini His etish va ritmik harakatlarning ifodali mazmunini boshdan kechirish asosida sanab o'tilgan uch qobiliyat yotadi.

Barcha tadqiqotchilarning yakdil fikriga ko'ra, musiqiy qobiliyat boshqa har qanday qobiliyatdan ertaroq paydo bo'la boshlashi mumkin. Asosli ma'lumotlar buni to'la tasdiqlaydi: alohida vaziyatlarda har uch musiqiy qobiliyatning ilk bor namoyon bo'lishi hayotning birinchi yilidayoq kuzatiladi. Uch yoshda kuy eshitish va ritm hissiyoti yetarlicha baland rivojlanishini kuzatish mumkin.

Musiqiy qobiliyatning erta namoyon bo'lishi, shubhasiz, yaxshi musiqiy iqtidor ko'rsatkichlaridan biridir. Ammo erta namoyon bo'lmaslikni musiqiy qobiliyatning sustligi yoki yo'qligining qaysidir darajadagi ko'rsatkichi, deb hisoblash hech ham mumkin emas.

Hozirgi paytda bolalarda musiqiy qobiliyatning turlicha rivojlanishi qanday sabablarga asoslanishi haqidagi savolga tugal bir javob berish qiyin. Bu sabablar, shubhasiz, juda xilma-xil va bola shaxsiyatining turli taraflari hamda uning tarbiyalanishining butun tarixiga bog'liq.

## **II-bob. O`quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va baolog`at yoshidagi mutatsiya davri xususiyatlarini o`rganish ishlari**

### **II.1.O`quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va baolog`at yoshidagi xususiyatlarini o`rganish**

Pedagogikada rivojlanish va tarbiyaning o`zaro bog`liqligi muhim muammolardan bo`lib, u ko`p munozaralarga sabab bo`ladi. Shaxsning rivojlanishi qiyin murakkab jarayon u ko`plab ichki va tashqi ta`sirlar va omillar orqali ro`yobga chiqadi. Inson hayot ekan, butun umri davomida o`sib, rivojlanib o`zgarib boradi. Bolalik, o`smirlik va o`smirlik yillarida shaxsning kamol topishi yaqqol ko`zga tashlanadi. Rivojlanish deganda biz shaxsning ham jismoniy, ham aqliy va ma`naviy kamol topishi jarayonini tushunamiz. «Shaxs» tushunchasi psixologiyada eng ko`p qo`llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o`rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida kayd etilgan. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsni chetlab o`tolmagan.

Shuni aloxida ta`kidlash lozimki. «Noto zar Tet» - «aklli zot» tushunchasini o`zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo`lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e`tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darvin ta`biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va ellatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko`prok biologik omillardan ko`ra, ijtimoiy-sotsial omillar ta`sirida ro`y bermokda. Shuning uchun xam xar bir individni yoki shaxsni o`rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o`rganishni taqozo etadi.

Sotsial yoki ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko`rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan alokasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va kabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi xarakterlarida nomoyon bo`ladi. Psixologiya ilmining nomoyondalari bo`lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va

jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi Iqonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Ieruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o‘zaro bog‘liklikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o‘zlarining eng durdona asarlarini bag‘ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo‘lgan narsa shu bo‘lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo o‘ning shu jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeini bilish zarur. Shaxsni o‘rganishning birlamchi mezoni ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘rni bilan belgilanishi kerak.

Pekin, shaxs bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar masalasi birdaniga, bir xil yechimga kelinmagan. Bu o‘zaro munosabatlar asosan ikki polyar nuqtai nazardan kelib chiqadi.

I — atshizm yo‘nalishining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tug‘ma harakterga ega, deb e’tirof etadilar.

Empirizm tarafdorlarining fikricha, yangi tug‘ilgan bola go‘yoki «top-toza paxta» (1aBila gaza), unga hayot va undagi talablar o‘zining konuniyatlarini yozadi va bola ularga so‘zeiz bo‘ysunishga majbur. Bu yo‘nalishning asoschilaridan biri Dj. Lokk bo‘lib (1632-1704) uning fikricha, tug‘ma fikrlar yoki g‘oyalar bo‘lishi mumkin emas, ular xoxish-tilak va og‘riq kabi elementlar sezgilarning qayta ishlanishi natijalaridir. Xayotda ana shunga o‘xshash turli xil sezgilar va g‘oyalarning assoiatsiyasi ro‘y beradi.

G.Leybnits (1646-1716) Lokka e’tiroz bildirib, xayotda umuman toza, sof doskaning o‘zi bo‘lmaydi, xattoki, eng yaxshi silliqlang marmar yuzasida xam sezilarli teshiklar, do‘ngliklar yoki tug‘ma asoratlar bo‘ladiki, ular layoqatlardek, inson takdirida ma’lum rol o‘ynaydi. Bu ikkala yirik yo‘nalish o‘rtasidagi tortishuvlarga chek ko‘yish maksadida F. Galton qator eksperimentam tadqiqotlar o‘tkazib, har bir individga xos differensial xususiyatlar mavjudligini «egizaklar metodi» yerdamida asoslashga harakat qildi. 2-jadvalda Galton tomonidan irsiy va orttirilgan sifatlar munosabati yuzasidan aniqlangan natijalardan keltirilgan.

### **Musiqiy qobiliyatlardagi irsiy xususiyatlar**



Ota-onalar bolalar	Musiqaga moyil	Musiqaga moyil emas
Musiqaga moyil	85%	7%
Musiqaga moyil emas	25%	58%

Egizaklardagi musiqaga moyillikning korrelyatsion ko'rsatkichi ham yuqori bo'lib ( $r=0,7$ ), egizak bo'lmagandardan ancha farq qiladi ( $r=0,3-0,4$ ).

Galtondan keyingi tadqiqotlarda musiqaga bo'lgan qobiliyatga ona tilining xususiyati ta'sir qilishi aniqlandi: yumshoq-tonal yoki keskir (qo'pol) - tonal bo'lmagan tillar. Masalan, keskinroq hisoblangan rus tilida gapiruvchi bolalardagi musiqani idrok qilish yumshoq, tonal tillarda so'zlashuvchi vyetnamliklarning idrokidan ancha past chiqqan.

Lekin yuqoridagi fikrlar va tortishuvlarning kelib chiqish sababi tushunarli bo'lishi kerak: ular insonning asl mohiyatini tushunish va uning xulqini boshqarish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Demak, inson jamiyat a'zosi sifatida uning normalariga bo'ysunadi, uning kutishlariga javob berishga xarakat qiladi va o'z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib shaxs fenomeniga ta'rif berish mumkin.

Shaxs- ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyektiv bo'lmish individdir. Shaxs o'z taaluqli bo'lgan eng muhim tasnif xam uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita alokadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyekt bo'lishlikdir.

Shaxsga taaluqli bo'lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, shu tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib (obyektni), so'ngra shu ta'sirlarning subyekta sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq «mening hayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni xis qiladigan siyosat, xuquq, axloq olamidir. Bu muhit - kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami ; bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qo'shilladi, ba'zilar qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalar va

normalar Blamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'kidlanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs • jamiyatga nisbatan bacha tartib -koidalarni qabul qiluvchi subyekt bo'lsa, jamiyat-ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashki kuchlar ta'sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, ahlokiy va boshqalar. Bu ta'sirotlar moxiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat va boshka) bilan bog'lik bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakillanib, ular bevosita oila, bog'cha, maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tikodi darajasida ko'tarilsa va unda yana yangidan-yangi fikrlar va goyalarning paydo bo'lishi va o'sishiga olib kelsa, shaxs tarakkiyoti jarayonida shunday faoliyat soxasini tanlaydiki, u o'z kobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyeli sifatida yo o'qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muxandis bo'lib, elu-yurtiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy munosabatlar xam shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakillanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqtchma-bosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya, ya'ni erkinlashtirish va shunga o'xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy ongi, tafakkuri va iktisodiy xulqi normalarini belgilaydi.

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs. Ijtimoiy norma - shaxs xayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan

topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; avtobusda yoki boshka jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o‘rin bo‘shatishi - norma va hokazo. Bu normalarni ayrim-alohida odam ishlab chikmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chikilmaydi. Ularning paydo bo‘lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko‘pchilik tomonidan e‘tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat. Davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiya muhrlanadi.

Ijtimoiy normalarni u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo‘lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orkali nazorat qilinadi. Ijtimoiy saiksiyachar • normalarning shaxs xulqida namoyon bo‘lishini nazorat qiluvchi jazo va ragbatlantirish mexanizmlari bo‘lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulk normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri obyektiga aylanib qolmaslikka harakat kilamiz. Masalan, yukoridagi misolda agar jamoat transportida katta mo‘ysafid kishiga o‘rin bo‘shatishni norma deb qabul qilmagan o‘smirga nisbatan ko‘pchilikning ayblov ko‘zi bilan qarashi, yoki ogzaki tanbex berishi, juda kam hollarda o‘zini bebosh tutayotgan o‘smirning qo‘lidan tutib, nima qilish kerakligini o‘rgatib, «ko‘zini moshday qilib ochib ko‘yish» ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko‘rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va kabul kilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni pishi mobaynida xulqida namoyon etadi. Rol - shaxsga nisbatan shunday shunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi xuquq va burchlaridan iborat xarakatlari majmini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo‘lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o‘kuv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a‘zo bo‘lish, stipendiya olib, ma‘muriyatning ijtimoiy himoyasida kabi qator xuquqlar1 bilan birgalikda o‘sha oliygox ichki tartib - intizomi normalariga so‘zsiz bo‘ysunish, darslarga o‘z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o‘zxlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo‘lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarini ham bajarish kabi kator burchlarni

ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyiga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota va ona, yaqin karindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. YA'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarining xarakteridan kelib chiqadi. Shunga kura, kimdir «tartibli, ba'maii, fozil axloqli va odobli» deyilsa, kimdir-be'mani, bebosh, o'zgaruvchap, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda -bartib) degap hayotiy mavkega ega bo'lib koladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statuyey ham turlicha o'lib koladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli) u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va okibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboprok mavqeni egallab Kolishi mumkin. Qolaversa ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini xam keltirib chikarishi ham mumkinki - shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarini ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirdan tahsil olayotgan talaba sessiya paytida maktab dasturida berilgan asarni ijro eta olmaydi va ruxiy azobga tushadi.

Kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni dars tayyorlashga harakat O'spirinlik davrida shaxs ijtimoiylashuvi. Shaxs uning dunyoni bilish o'zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni bilish tushunishi va o'zaro munosabatlar jarayonida o'zidagi takrorlanmas individuallilikni namayon qilishi hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinO'a bog'lik ayrim jihatlarini' taxlil qilish bizga umumiy ravishda shaxs jamiyatda yashaydigan ijtimoiy mavjudoddir, degan xulosani qaytarishga imkon beradi. YA'ni u tug'ilgan ongdan boshlab o'ziga o'xshash insonlar qurshovida bo'ladi va uning butun ruhiy potensiali ana shu muhitda namayon bo'ladi. Chunki agar insonning untogenetik taraqqiyoti tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak hali gapirmay turib odam bolasi o'ziga o'xshash mavjudodlar davrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy muloqatning barcha ko'rinishlarining faol obykti va subyekxiga aylanadi. Shu nuktai pazardan har birimizning jamiyatdagi o'rnimiz uning kachon va qanday sharoitlarda paydo bo'lgani jamiyatga ko'shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayen psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya deb yuritiladi.

## 2. Shaxsni kamol toptirishda tarbiya va rivojlanishning o'zaro bogliqligi.

Mehnatsevarlik ruxida tarbiyalash. Jismoniy va akliy mehnatga birday hurmatda bo'lish kabi hislatlarni shakllantirish o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasidagi eng muxim vazifalardan biridir.

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti sharoiti shakllanilayotgan bir kezda o'kuvchilarda' turmushga va mehnatga yangicha munosabatni, layokatni shakllantirish-mehnat tarbiyasining maksadlaridan biridir. Bunda, albatta ishlab chikarishning asosiy shakllarini ayniksa iqtisodiy munosabatlarning yangi-yangi omillarini, ularga tanish xizmat turlarini belgilab olish darkor. Bolalarda musiqaga, kasb -hunarga bo'lgan muhabbatni uygotish jarayonida ularning ijodiy nisbatlarini shakllantirishga ham e'tibor qaratish lozim. O'kituvchilarni kuyi sinfdan kasbga yunaltirib, sinfni tugatganlarida akademik litsey yoki kasb xunar kollejlariga yullanma berish maksadga muvofikdir.

O'kuvchilarni bozor sharoitiga o'rgatishning o'zi ularning halol va fidokorona mehnat tufayli foyda olish xaqidagi amaliy bilimlarini boyitadi. Bolalarni jamoa bo'lib, hamkorlikdagi mehnati natijasida I maxsulot soni va Xizmat turlarini oshirish mumkinligiga o'rgatish lozim.

Sinf konsertlari va tadbirlarga, usta - shogird maktablariga qatnashib, kucha Ikuylarni tartibga keltirishdagi maktabgacha ta'lim muassasalaridagi va shunga o'xshash ishlarni qo'llab quvatlash lozim. Ular bu ishlarning barchasidan foyda topish malakasini oshirib borishlari kerak.

Bozor munasabatlari bugungi kunda jaxonda tan olingan moddiy I barqarorlik va odamlarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirib turadimgan birdam-bir vosita ekanligini anglamoq kerak. Bu munosabatlarda yukori ko'rsatkichlarga erishish uchun qat'iy intizomga texnik va iqtisodiy bilimga malakaviy mutaxasislarga ishni to'g'ri rivojlantirishga asoslanadi. O'quvchi bozor karama-qarshiliklarni va ularni bartaraf etish yullaripi ham topa bilish kerak.

Bugungi kunda mukammal iqtisodiy tarbiyani takomillashtirimasdan ish qilib bo'lmaydi. Shu bois o'qituvchi sinf rahbari, maktabdan tashkari ta'lim muasasa

xodimlari nafakat bilim berishlari, balki o'quvchilarda iktisodiy faoliyat malakasini hosil etish, bozor munosabatlari sharoitida mustaqil fikrlashga o'rgatish lozim bo'ladi.

Ishga ijodiy yondashuvning rivoji topqirlik, ixtirochilik, ishbilarmonlik faollik va tashabbus tufayligina yukori samara beruvchi foyda yuzaga kelishi mumkinligini tushuntirilsa, o'quvchilar iktisodiy faoliyatda muvaffakiyat kozonadi.

Maktabda o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashda so'zsiz ular da bir-birini qo'llab-kuvatlash, mexribonlik, hushmuomilalik fazilatlari shakllantirib boriladi. Mehnat tarbiyasida bolalarni tizimida iktisodiy bilimlar bilan kurollantirish, jonkuyar va qarama-qarshiliklardats okilona foydalana oladigan qilib tarbiyalash juda muhimdir.

## **II.2. Umum ta`lim maktablarida o`quvchilarning musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarini e`tiborga olish ishlari**

Umumta`lim maktablarning oltinchi, yettinchi sinflarida olingan bilim va malakalar chuqurlashadi. Ayniqsa shu yoshdagi o`smir o`quvchilar musiqani badiiy jihatdan mustaqil tinglab uni mukammal idrok etadilar. Musiqa darslarining maqsad va vazifalari, o`quvchilarning psixologik -; fiziologik xususiyatlari va musiqiy o`quvi, oldingi sinflarda olgan bilim va malakalarini darajasiga asoslanib belgilanadi. Bu sinfda amalga oshirilishi lozim bo`lgan maqsadlar, musiqa tarbiyasining bosh mezoni -o`quvchilarning ma`naviy boyligining tarkibiy qismi bo`lgan musiqiy madaniyatni shakllantirishga qaratiladi. Mazkur maqsadlarni quyidagicha amalga oshirish belgilanadi:

1. Darsning barcha faoliyatlari vositasida doimiy ravishda o`quvchilarning musiqaviy iqtidorini rivojlantirib borish.

2. Vokal - xor malakalarini rivojlantirib, yakka jamoa bo`lib kuylash, ikki ovozli kuylashga o`rgatish.

3. Musiqa idrokini rivojlantirish va asarlarni tuzilishi, shakli, ladi, mualliflari, tem pi, xakida fikr yuritishga o`rgatish va estetik zavqlanish vositasida xotirasi, nutqi, dunyoqarashini o`stirish.

4. Musiqa savodidan, oddiy musiqa terminlarini va atamalarini mohiyatini musiqa amaliyotida bilish va har bir musiqa asosida kuylab borish. 6-sinf o`quvchilarida o`spirinlik davri boshlanadi. Buning natijasida organizmda aktiv o`zgarishlar ro`y beradi. Fiziologik -psixologik jixatdan o`quvchilarni ovozini o`rganishi, bo`yning o`sishi, fanlarga qiziqishi, mustaqil fikr yurita olishi qobiliyatlari rivojlana boshlaydi. Natijada bosh miya, yetarli darajada ozuqa ololmay, xorginlik xolatlari ro`y beradi. YA`ni, dars davomida o`quvchilarni diqqat e`tibori tarqaladi. Ularni jalb etish qiyinlashadi. Bu davrda ularga jiddiy, mehribonona munosabatda bo`lish, do`stona suhbatlashish talab etiladi. Shuning uchun o`qituvchi har bir o`quvchini yaxshi

o'rganishi lozim. Chunki, Silar kattalarni munosabatiga jiddiy e'tibor beradilar, ular ko'prok bilan muomalada bo'lishlarini istaydilar.

Bolalarning intizomida ayrim o'zarishlari paydo bo'ladi, bolaning istagi va qobiliyati orasida tafovutlar sodir bo'lib turadi. bularning hammasi o'qituvchidan yukori malaka va tarbiyachilikni talab etadi. Bunday holatda o'qituvchi O'quvchilarni quyi sinflarda olgan bilim va malakalarga va hayotiy dalillarga suyanib ish tutishi yaxshi natija beradi. Buning uchun dars mazmunini xayot bilan bog'lab olib borish zarur. Qo'shiq o'rgatish va musiqa tinglash jarayonida asarlar hakida so'zlash, parchadar kuylash bolalarda [ qiziqish uygotadi. Bunda iasar mazmunini batafeil tushuntirish lozim. Asarlarii taxlil etishda bolalarni aktiv katnashtirish maqsadga muiofikdir. Har bir xalqning uz milliy musiqa san'ati mavjudligi, musiqa char bir tarixiy davrning badiiy aksi ekanligi haqida bolalarga aniq tushuncha xosil qilishi lozim. Shu asosda O'zbek musiqasining kiska tarixi cholgu asboblari va O'zbek xalq musiqa janrlari, makomlari mumtoz qo'shiqlari zamoiaiviy ko'shiklarini taqqoslab ko'rsatish mumkin. Masalan: «Shashmaqom», tojik va o'zbek xalqlarining azaliy birodarlik ramzi bo'lganligi, ularning va sharq xalqlarining kup cholgu asboblarini o'xshashligi, xalq, kompozitorlar tomonidan yaratilgan asarlar \$a zamoiaiviy musiqa bilan tanishtirib taqqoslash lozim.

7-sinf o'quvchilarida (14 yoshda) mutatsiya davri kuchayadi. Lyniksa, o'gil bolalarda ovoz boylamlari yo'gonlashib, ovoz registri bir oktava ga pasayadi.

Natijada o'quv, va ovoz o'rtasidagi koordinatsiya buzilib, bazan bolalar imtoiatsiyasini aniq kuylay olmaydilar. Bunday paytda o'qituvchi kuylash uchun kulay yo'llarini tushuntirishi shuningdek asosiy maksadni kuylashga emas balki yangi -texnologiyalar asosida darslarni o'yin savol-javoblar orkali bilim berish mavzularni kengrok va chukurrok kil ib tushuntirish glozimdir. Qo'shik ijrosiga kelganda esa ovozni toliktirmasdan erkin, ravon kuylashga o'rgatishi kerak. Mutatsiya davrida bolalar ovozida kun lozim. Yoki ovozlarni transpartirovka qilib pastki tovushlarga tushirish lozim. Tajribalar mutatsiya



davrida ovozlarni to'g'ri taqsimlash, ovozlarni tekis chiqishi va qiyinchiliklarga duch kelmaslikka olib keladi. Tanlangan ko'shiqlar qahramona, lirik, estrada, O'zbek xalq qo'shiqlaridan bo'lsa, o'kuvchilarda o'rganishga qizikish uyg'otish lozim. Ba'zi bir qo'shiqlarni yakkaxon yordamida ham o'rgatish mumkin. Ashula aytganda dinamik belgilari, tempi, badiiy ijrosiga erishish zarur. Yettinchi sinflarda notaga karab kuylash, intervallar, o'lchovlar, dinamik belgilar, parallel major va minor ladlari kabi mavzularda alohida to'xtab o'tib, musiqali misollar keltirish mumkin. Musiqali misollarni kuylaydigan qo'shiqlardan tinglangan musikiy asarlar asosida va o'zbek xalq qo'shiklari misolida keltirish maksadida muvofikdir. Bundan tashqari ular musiqiy asarning shaklini xam bilishlari kerak. Musiqa tinglash jarayonida o'tadi. Halq ko'shiqlari, makomlar, mumtoz xalq musiqasining ma'naviy uslubi kabi bilimlarga ega bo'lishlari va mustakil fikr yurita olishlari lozimdir.

O'rganiladigan asarlar badiiy va g'oyaviy yaxlit tassurot qoldirish uchun ularni ma'lum mavzu asosida o'rganish maqsadga muvofikdir. Bunday mavzular bir yoki bir necha dars asosida musiqa konuniyatlarini ijrochilik turlari va uning ifoda vositasi bo'lgan ma'lum mazmun bilan bog'lanishi mumkin. Masalan: «Mahalliy musiqa uslublari», «Maqom», «Katta ashula janri», «Shashmaqom» shular jumlasidandir. Uqituvchi tanlangan musiqa asarlarini muayyan tartibga solgan holda, o'kuvchilarni mutatsiya davrida ovoziga ziyon yetkazmasligi uchun ularni ovoz diapazoni, ishtiyoq va zavki, musiqa va ashula sohasidagi tayyorgarligi e'tiborga olinishi lozim.

Oltinchi sinfda musiqa darslarining maqsad va vazifalari, o'quvchilarning psixologiya-fiziologik xususiyatlari va musiqiy o'quvi, oldingi sinflarda olgan bilim va malakalarini darajasiga asoslanib belgilanadi. Bu sinfda amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsadlar, musiqa tarbiyasining bosh mezoni-o'quvchilarning ma'naviy boyligining tarkibiy qismi bo'lgan musiqaviy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Mazkur maqsadlarni quyidagicha amalga oshirish belgilanadi:

1. Darsning barcha faoliyatlari vositasida doimiy ravishda o'quvchilarning musiqaviy iqtidorini rivojlantirib borish.

2. Vokal-xor malakalarini rivojlantirib, yakka jamoa bo'lib ko'ylash, ikki ovozli kuylashga o'rgatish.

3. Musiqa idrokini rivojlantirish va asarlarni tuzulishi, shakli, ladi, mualliflari, tempi haqida fikr oritishga o'rgatish va estetik zavqlanish vositasida xotirasi, nutqi, dunyoqarashini o'stirish.

4. Musiqa savodidan, oddiy musiqa terminlarini va atamalarini mohiyatini musiqa amaliyotida bilish va har bir musiqa asarida kuylab borish. Ovoz diapazoniga (DO-RE) qarab ikki ovozlik qilib o'rgatiladi. Oltinchi sinf o'quvchilarida o'spirinlik davri boshlanadi. Buning natijasida organizmda aktiv o'zgarishlar ro'y beradi. Fiziologik-pisxologiya jihatdan o'quvchilarni ovozini o'zgarishi, bo'yining o'sishi, fanlarga qiziqishi mustaqil fikr yurtga olishi qobiliyatlari riaojlana boshlaydi. Natijada bosh miya, yetarli darajada ozuqa ololmay, horginlik holatlari ro'y beradi. YA'ni, dars davomida o'quvchilarni diqqat-e'tibori tarqaladi. Ularni jalb etish qiyinlashadi. Bu davrda ularga jiddiy, mehribonona munosabatda bo'lish, do'stona suhbatlashishni talab etiladi. Shuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchini yaxshi urganishi lozim. Chunki, o'quvchilar kattalarni munosabatiga jiddiy e'tibor beradilar, ular ko'proq kattalar bilan muomalada bo'lishlarini istaydilar. Bolalarning intizomida ayrim o'zgarishlar paydo bo'ladi, bolaning istagi va qobiliyati orasida tafovutlar sodir bo'lib turadi. Bularning hammasi o'qituvchidan yuqori malaka va tarbiyachilikni talab etadi. Bunday xolatda o'qituvchi o'quvchilardan quyi sinflarda olgan bilim va malakalarga va hayotiy dalillarga suyanib ish tutishi yaxshi natija beradi. Buning uchun dars mazmunini hayot bilan bog'lab olib borish zarur. Qo'shiq o'rgatish va musiqa tinglash jarayonida asarlardan parchalab kuylab ovozlarini sozlash bolalarda qiziqish uyg'otadi. Bunda ijro uslublarini batafsil tushuntirish lozim. Asarlarni tahlil etishda bolalarni aktiv qatnashtirish maqsadga muvofiqdir. Har bir xalqning o'z milliy musiqa san'ati mavjudligi, musiqa har bir tarixiy davrning badiiy aksi ekanligi haqida bolalarga aniq tushuncha hosil qilish lozim. Shu asosida o'zbek musiqasining qisqa tarixi cholg'u asboblari va o'zbek xalq musiqa janrlari, maqomlari mumtoz qo'shiqlarini taqqoslab ko'rsatish mumkin. Masalan "Shashmaqom", tojik va o'zbek xalqlarining azaliy birodarlik ramzi ekanligi ularning ko'p cholg'u asboblari bir xilda

ekanligi va boshqa xalqlar foydalaniishi mumkinligi haqida, xalq musiqasi asosida yaratilgan kompozitorlik asarlar va zamonaviy musiqa bilan tanishtirib taqqoslash lozim.

Musiqa savodidan o'lovlar, ladlar ton va yarim ton, alteratsiya belgilari, dinamik belgilari, intervallar reprimlar bilan tanishtirib musiqiy asarlarni taxlil qilish yaxshi natija beradi. Oltinchi sinfda o'lovchilarini ovoz diapazoni 1-ovozlar uchun (DO-MI) 2-ovozlar uchun (SO'L- RE) bu davrda o'lovchilarga qo'shiqlarni ikki ovozlik qilib o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu paytda, mutatsiya davri boshlanadi. Mutatsiya davridan oldin o'gil va qiz bolalar ovozi o'rtasidagi farq uncha sezilmaydi. Mutatsiya paytida qo'shiq o'rgatish o'qituvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Qo'shiqlarni bolalarning ovoz imkoniyatlariga mos tutishi va dars davomida ularning ovozlarini asrab avaylab ishlariga ahamiyat berish zarur. Darsning asosiy qismini ashula aytishga sarf etib, ovozlarni charchatmaslik lozim. O'lovchilarni ikki ovozga ajratib qo'shiqlarni ikki ovozlik qilib, ularning ovozlariga moslash ovoz tarbiyasining muhim vositasidir. Xor bo'lib kuylash musiqa savodi, musiqa tinglash faoliyatlari, asarlarning tahlil qilishda mavzular asosida mantiqan bog'lanadi.

Yettinchi sinfda musiqa o'qitish jarayoni yakunlanadi. Unda quyi sinflarda olingan bilim va malakalar chuqurlashadi, takomillashib umumlashadi. Ayniqsa, musiqani badiiy jihatdan mustaqil tinglab, uni mukammal idrok etib, yangi qo'shiqlarni mustaqil o'rgatish, hayotimizdagi musiqa faoliyatiga aktiv qatnashishga o'rgatib borish ishi nihoyasiga yetadi. 7-sinf o'lovchilari fiziologik-psixologik xarakterga ko'ra diqqat e'tiborlari turg'un, dunyoqarashi rivojlangan bo'ladi. Ovoz shakllanishi notekis bo'ladi. Ular mustaqil fikr yuritish, hikoya tuzish, musiqaga doir albom, referatlar, sinf burchaklari va ko'rgazmali qurollar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'lovchilarning bu ijodiy xususiyatlaridan foydalanib, musiqa san'atiga, musiqa savodiga doir ko'rgazmali qurollar tayyorlash vazifasini topshirishi mumkin. Shuningdek, mashhur bastakorlarga doir albomlar tayyorlashni ham topshirishi mumkin. Vokal-xor ishlari: qo'shiq o'rgatish jarayonida ularni ovozlarini asrab tarbiyalash ishi murakkablashadi. Chunki bu yoshda mutatsiya davri kuchadi.

Ayniqsa, o'g'il bolalarda ovoz boylamalari yo'g'onlashib, ovoz registri bir oktavaga pasayadi. Natijada o'quv, va ovoz o'rtasidagi koordinatsiya buzilib, ba'zan bolalar intonatsiyasini kuylay olmaydilar. Bunday paytda o'qituvchi kuylash uchun qulay yo'llarini tushuntirishi kerak. Ovozni toliqtirmasdan erkin, ravon kuylashga o'rgatish kerak. Mutatsiya davrida bolalar ovozida kun sayin o'zgarish ro'y beradi. Buni hisobga olib ovoz partiyasini ko'paytirish lozim. Yoki ovozlarni transpartirovka qilib pastki tovushlarga tushirish lozim.

Ovoz diapazoni birinchi ovozlarda (DO-MI)-2 ovozlarda esa-(SI-DO) gacha bo'ladi. Tajribalar mutatsiya davrida ovozlarni to'g'ri taqsimlash, ovozlarni tekis chiqishi va qiyinchiliklarga duch kelmaslikka olib keladi. Tanlangan qo'shiqlar qahramona, lirik, estrada, o'zbek xalq qo'shiqlaridan bo'lsa, o'quvchilarga o'rganishga qiziqish uyg'otishi lozim. Ba'zi bir qo'shiqlarni solist yordamida ham o'rgatish mumkin. Ashula aytganda dinamik belgilari, tepi, badiiy ijrosi erishish zarur. Yettinchi sinflarda musiqa savodini oldingi ilimlarga tayanib, notaga qarab ko'ylash, intervallar, o'lchovlari dinamik belgilari, parallel major va minor ladlari kabi mavzularda alohida to'xtab, musiqali misollar keltirishimiz mumkin. Musiqali misollarni kuylaydigan qo'shiqlardan tinglangan musiqiy asarlar asosida va o'zbek xalq qo'shiqlari misolida keltirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari ular musiqiy asarning shaklini ham bilishlari kerak. Musiqa tinglash bir muncha murakkablashadi. Chunki darsning asosiy qismi tinglash jarayonida o'tadi. Xalq qo'shiqlari, maqomlar, mumtoz xalq musiqasining manaviy uslubi kabi bilimlarga ega bo'lishilari va mustaqil fikr yurita olishlari kerak. Musiqani badiiy jihatdan mustaqil tinglab, uni mukammal idrok etib musiqani tuzilishi, musiqa adabiyoti, savodi bilan, yangi qo'shiqlar bilan tanishtirish, ularni hayotimizdagi ahamiyati haqida bilimlarni o'rgatish nihoyasiga yetadi. Chunki, 7-sinf o'quvchilarini dunyoqarashi rivojlangan bo'ladi, ammo ovoz apparatlarini shakllanishi notekis bo'ladi. Ularga mustaqil fikr yuritish, hikoya tuzish, musiqaga doir referatlar, sinf burchaklar, tadbirlar o'tgazish va ko'rgazmali qurollar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchilarning bu ijodiy xususiyatlaridan foydalanib musiqa san'atiga doir vazifalar topshirishi lozim. Lekin vokal-xor ishlarida, qo'shiq o'rgatish

, ovoz sozlash jarayonida ularni ovozlarni ehtiyot qilish , metodik to'g'ri yo'llanma berni kerak . Ba'zi paytlarda, bolalar bilan suhbatlashish, ota-onalarni taklif etib, doktorga farzandining sog'lig'i haqida murojaat qilishni taklif qilish lozim. Chunki, 7-sinfda bolalarda mutatsiya davri boshlanadi. Mutatsiya davrigacha o'g'il va qiz bolalarda ovoz apparatining tuzilishi o'xshash bo'lib, ular bir-biridan uncha farq qilmaydi. Mutatsiya davrida esa ularning ovozlari o'zgarib, o'g'il bolalarda ovoz registri jihatidan bir ovozga pasayib, yo'g'onlashadi. Qiz bolalarda esa registr o'z o'rnida qolib, ovoz kuchi, tembrning mayinligi deyarli saqlanib qoladi. Shu boisdan, o'g'il bolalarda mutatsiya aktiv va sezilarli darajada, qiz bolalarda esa osoyishta va tekis o'tadi. Natijada ba'zi o'g'il bolalar, ashula aytganda sozga tusholmay qiynaladilar. Ba'zilar esa kuchanib kuylaydilar. Bu davrda o'g'il bolalar ovozi shartli ravishda erkakcha ovozga, qiz bolalar ovozi esa balog'atli xotin qizlar ovozigacha asta-sekin o'ta boshlaydi. O'g'il bolalar tomog'ida ovoz boylamalari yo'g'onlashadi, qizaradi, shishlar bo'lishi mumkin. Natijada diapazon qisqarib, yuqori pardalarda kuylash og'irlashadi. Tez charchash holatlari paydo bo'ladi. Mutatsiya davrida o'g'il va qiz bolalarga ashula o'rgatish ias'uliyat talab etadi. Qo'shiqlarni bolalarning ovoz imkoniyatlariga moslashtirib, dars davomida, ularning ovozlarni asrab-avaylab o'rgatish lozim. Ovoz partiyalarini aniq ajratib, ikki ovozda ashula, aytirish, ovoz tarbiyasining muhim vositasidir. Bolalarning intizomida ham o'zgarishlar paydo bo'ladi. Emotsional uyg'onishlar, organizmdagi garmonik o'zgarishlar darsga nisbatan qiziqishni pasayishiga sabab bo'ladi. Bu davrda o'qituvchi mohirlik bilan musiqiy asarlar mazmunini hayotim bilan bog'lab o'tishi, uning vositasida ahloqiy go'zallik tarbiyasini berish dars mazmunini boshqa fanlar bilan bog'lab olib borishi lozim.

Vokal- xor ishlari va musiqa tinglash ishlarini amalga oshirishda quyi sinflarda olingan bilim va malakalariga va hayotiy tajribalariga suyanib ish tutish yaxshi natija beradi. Qo'shiq o'rgatish metodlari 7-sinfda ham umumiy metodlaridan ko'p farq qilmaydi. Musiqa tanlashda esa mazmun jihatdan ancha murakkab bo'lgan asarlar o'tiladi. O'zbek xalq qo'shiqlari maqomlari, mumtoz ashulalari, yalla va laparlari, halq musiqasining mahalliy uslublari bilan tanishib, tuzilish mazmunining

tarixi o'rganadilar. Mumtoz ashulalar kuylab, maqomlar kuylab, o'zbek xalq musiqasini durdona asarlaridan zavq oladilar.

O'rganiladigan asarlar badiiy va g'oyaviy yaxlit taassurot qoldirish uchun ularni ma'lum mavzu asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bundan mavzular bir yoki bir necha dars asosida musiqa qonuniyatlarini ijrochilik turlarining uning ifoda vositasi bo'lgan ma'lum mazmun bilan boshlanishi mumkin. Masalan: "Lad nima", "Mahalliy musiqa uslublari", "Maqom" "Katta ashula janri", "Shashmaqom" shular jumlasidandir. O'qituvchilar tanlagan musiqa asarlarini muayyan tartibga solgan holda, o'quvchilarni mutatsiya davrida ovozga ziyon yetkazmasligi uchun ularni ovoz diapazoni, ishtiyoq va zavqi, musiqa va ashula sohasidagi tayyorgalligi e'tiborga olinishi lozim. O'quvchilarga musiqiy tarbiya berishning negizi xorda ashula aytishdir. Ashula aytganda ovozni parvarish qilish va maxsus vokal-xor mashqlari, ya'ni uchtovushli, past bosqich yoki yuqori bosqichdagi tovushlar orasida kvinta yoki oktava miqyosidagi qismlarida jo'rsiz mashqlar, qo'shiqlardan parchalar aytib ovozni sozlab bir maromga solish katta ahamiyatga ega. Musiqa tinglaganda va xor bo'lib qo'shiq aytganda, musiqa sohasidan olingan barcha nazariy ma'lumotlarni mashq qilish jarayonida mustahkamlaydi. Qo'shiq o'rgatish jarayonida o'qituvchi asarni ifodali ijro etib asar haqidagi qisqa qiziqarli obrazli kirish so'zi, asarning janri mazmuni ifoda vositalari haqida suhbatlar o'tkazishi muhim rol o'ynaydi. Yetti yillik o'qish davrida, musiqa sohasida ish olib boirsh natijasida, o'quvchilar musiqa savodxonligiga ega bo'lib, musiqani ongli tahlil qila oladigan, yirik musiqa asarlarini radio va televideniya orqali, musiqa darslarida, konsertlarda mehr bilan tenglaydigan, badiiy havaskorlik to'garaklarida ishtirok etadigan va musiqani chin dildan sevadigan insonlar bo'lib yetishadilar.

Insonning ovoz apparati o'ziga xos murakkab «musiqa asbobi» bo'lib, u o'zining rang-barang tembr boyligi, nixoyatda nozik musiqa ifodalash xususiyatlariga egaligi bilan hamma musiqa asboblardan ustun turadi. Chunki kishi ovozi kuy va so'zni organik payvandlash natijasida musiqiy nutqning asl ma'nosini ochib beradi. Bu borada inson ovozigacha teng keladigan birorta ham musiqa asbobi yuk. Shuning uchun ham inson ovozi ko'pincha «gapiruvchi musiqa asbobi» deb ham yuritiladi. Har

bir bo'lg'usi musiqa o'qituvchisi ovoz apparatlarini to'g'ri kuya bilishi va rivojlantirishi shart. Tovush hosil bo'lishi ovoz apparatining harakati natijasida sodir bo'ladi. Bu apparat uch qismdan iborat:

- 1.Nafas organlari
- 2.Hiqildoq (ovoz pardalari joylashgan qism)
- 3.Rezonatorlar (yutkin,ogiz va burun)

Insonning o'pkasi ko'krak nafasining ko'p qismini egallagan bo'lib, 2 ta surgichsifat va konus shaklidagi million o'pka sharchalaridan tashkil topgan - alveol, odam organizmini keraqli kislorod bilan ta'minlaydi. Bu alveollar mayda kanallar bilan boshlangan bo'lib sekin rivojlanib bronx sistemasini tashkil qiladi. O'pkaning ichki tuzilishi tursimon kon arteriyalardan tashkil topgan. O'pkaning ishlash jarayoni uch qismdan iborat:

- 1.Nafas olish
- 2.Nafas chiqarish
- 3.Nafas olishdan oldin dam olish(pao`za)

II. Hiqildoq - ovoz paydo qilish apparati vazifasini bajaradi. Hiqildoq uzluksimon, qalqonsimon va ikkita shoxsimon (uchburchak) togaylardan iborat bo'ladi. Ular muayyan musqullar yordamida oldinga va orqaga harakat qiladi. Kalkonsimon togayning pastki, uzluksimon togayning xalqa qismi ustidagi pardalar elastik tolalardan tuzilgan. Tomoqning xalqum devorlari tomonidan nafas (burundan keyingi) yo'li boshlanadi, ovoz ravogiga takaladi. Ovoz ravogining har ikkala chetida juda nozik tola to'qimalardan iborat ovoz pardalari joylashgan. Odam ovozi juft va tok hiqildoq togaylari pardalarining musqullari yordamida bir-biri bilan birikishidan hosil bo'ladi. Nafas orqali chiqayotgan xavo hiqildoqdagi togaylar orasida tortilgan ovoz pardalariga urilib tebratadi va ovoz chiqaradi.

Tovushning baland-pastligi, yo'g'on-ingichkaligi hiqildoq bushligining katta-kichiqiligiga, pardalarning tarangligiga, ularning uzunligi va qalinligiga, til, xalqum-hiqildoq musqullarining qisqarishiga bog'liqdir.Ovoz pardalari latincha «lig vocale» deyiladi. Bu pardalar yuqori va pastda joylashgan bo'lib, yuqoridagisi soxta,

pastdagisi esa chin ovoz pardasi deyiladi. Ayollarning xikildogi erkaqlarnikiga qaraganda yuqoriroqda, bolalarniki esa undan ham yuqoriroqda joylashgan bo'ladi.

Keksalarning xiqildogi esa o'rta yoshli kishilarga qaraganda pastroqda joylashgan. Shuning uchun ham ovozlar past-baland bo'ladi. Shuni ham aytish kerakki, kishi erkin nafas olib, nafas chiqarayotganda ovoz chiqmaydi, chunki bunday vaqtda ovoz ravogi erkin xolda bo'lib, ovoz pardalari taranglashmagan, deyarli harakatda bo'lmaydi. Ovoz ravogining toraya boshlashi bilan tovush boshlaydi.

Rezonatorlar yuqorigi va pastki qismlardan iborat bo'lib, ular ovoz pardalarining yuqorisi va ostida joylashadi.

Yuqorigi ovoz rezonatorlariga yutqin, ogiz va burun bo'shliqlari, pastki (ko'krak qismi) ovoz rezonatorlariga traxeya va bronx bo'shlig'i kiradi. Ovoz tembrining sifati tovush utuvchi ovoz pardalari tembranishi bilan rezonans bo'shliqlariga bog'liq. Tomoq va ovoz pardalarining harakati mushaklar va togaylar sistemasining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Mushaklarning ayrimlari qisqarib, pardalarni taranglashtiradi, ayrimlari ulami birlashtiradi. Agar ovoz pardalari o'zining butun massasi bilan tebransa, ko'krak registridagi tovush, ovoz pardalari faqat chekkasi bilan tebransa yuqori registrdagi tovush yuzaga keladi. Honandaning ovozi tovush kuchi, tembr va balandligi bilangina emas, balki diapazoni bilan ham xarakterlidir. Ovoz diapazoni eng past tovushdan eng baland tovush oralig'idagi xajmni o'z ichiga oladi. Odam ovozining butun diapazonini registrlarga bo'lish mumkin. Registr ovoz diapazonining bir qismi bo'lib, tembr va tovush yo'nalishining bir-biri bilan moyilligiga asoslanib aniqlanadi. Odam ovozini past (ko'krakdan chiquvchi tovushlar), o'rta (aralash) va yuqori (bosh bilan bog'liq tovushlar) registrlarga bo'linishi qabul qilingan.

**Bolalar ovozi** ko'krak aralash (mikst) va bosh (faltset) registrlardan iborat. Bolalar ovoz apparatining tuzilishi va rivojlanishi xususiyatlariga qarab har bir yosh gruppasi individual registrdagi ovoz tuzilishiga ega.

Kichiq gruppa bolalari (7 dan-10 yoshgacha) ovozining diapazoni kichiq bo'lib, yengil faltset (bosh registrdagi) sadosi bilan ajralib turadi. O'rta yoshdagi bolalar ovozlarida (11-15 yosh), ayniqsa, o'g'il bolalarda ko'krak registrdagi tovush



elemenllari paydo bo'lib, diapazon kengayadi. Bu yoshdagi bolalar ovozinin diapazonida uchala registr (bosh, aralash ko'krak) ajralib tursada, kuylash vaqtida asosan mikst (aralash) registri tovushlari ishlatiladi. Katta gruppada yoshidagi bolalar ovozida (14-16 yoshlarda) tembr aniqligi, voyaga yetgan ovoz elementlari paydo bo'ladi. Lekin amalda mikst (aralash) registri tovushlari saqlanadi.

Bolalar ovozi diskant (yoki soprano) va alt bo'linadi. Diskant -bolalarning yuqori ovozi bo'lib, uning kamrovi birinchi oktava «do» dan, ikkinchi oktava «fa-sol» gacha ko'tariladi. Diskant yengil, o'zgaruvchan, yumshok (bosh registrida) yangraydigan ovoz bo'lgani uchun har xil kuy va ohanglarni juda sirchan ijro eta oladi. Alt bolalarning pastki ovozi. U kuchli va birmuncha yo'g'on jarangdor tembrli bo'lish bilan birga, ba'zi xollarda mayin xarakterga ham ega bo'ladi. Alt tovushining diapazoni kichik oktava «sol-lya» dan ikkinchi oktava «re-mi» (ba'zida-«fa») gacha bo'ladi. Shunga e'tibor qilish kerakki, alt ovozinin juda ham yuqori pardalari qo'llanilsa, bolalar zo'rikib kuylaydi, shuningdek, juda past pardalar ishlatilsa, ovoz kuchsiz bo'lib chiqadi. Shuning uchun juda yuqori tessiturada yozilgan asarlar bolalar xoriga tavsiya etilmaydi. Bunday paytlarda asarni bolalar xorining diapazoniga qarab qayta moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Alt diskantlarga nisbatan sustrok bo'ladi. Ko'p xollarda xorda bu ovozga ikkinchi tovush topshirilishiga qaramay u ba'zida asosiy kuyni ham olib boradi, unda ovozning ijrosi juda ravon va ifodali jaranglaydi.

Honanda ovozi tabiatning qimmatbaho in'omi bo'lib, undan ijrochi extiyotkorlik va aql bilan foydalanishni talab qiladi. Qatliq nutq, bakirib kuylash, noqo'lay (past va yuqori) tessiturani xaddan tashqari ishlatish, ovoz apparatining kasalligida kuylash - bularning hammasi ovoz pardalarini charchashiga va kasalga chalinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababdan, ashulachilar o'z ovozlarni asrashlari, uni har xil kasalliklardan saqlashlari zarur. Mashg'ulotni dam olish bilan okilona almashtirib turish honandalik rejimining asosiy qoidasidir. Shuningdek, sovuk xavoda kuylash, sovuk ichimlik ichish esa, ovoz apparatiga salbiy ta'sir qilishini esdan chiqarmaslik kerak.

Vaqtivaqti bilan vrach-foniatr ko'rigidan o'tib turish ovoz apparati kasalliklarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Bolalar xor kollektivlarining

raxbarlari bolalarning mutatsiya vaqtidagi vokal partiyasi xususiyatlarini bilishlari lozim.

Mutatsiya latincha - «mutati» - o'zgarish (rasta bo'lish) demakdir. Bolalar xori bilan ishlaganda, ularning yoshiga qarab, fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. O'g'il va qiz bolalarning organizmida 12-14 yoshda, ba'zida undan ham kechroq katta o'zgarishlar bula boshlaydi. Yurak kengaya boshlaydi, musqullar mustahkamlasha boradi, ovoz tonida o'zgarishlar bo'ladi va xokazo. Bunday davrda bolalar ovozi ortikcha «kuylashga kuchi yetmaydi va diqqat hamda extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi.» O'g'il bolalarda xalqum tez o'sadi, ovoz pardalari uzunlashadi, ovoz pasayib kichiq oktava tovushlariga uta boshlaydi.

Ba'zi vaqtda mutatsiya davri og'ir va har xil holatda o'tishi sababli machg'ulotlarni vaqtincha tuxtatish zarur bo'lib qoladi. Qiz bolalarda mutatsiya osoyishta, asoratsiz o'tadi. Lekin shunga qaramay, qizlarning ovozini ham extiyot qilish zarur. Honandalik rejimiga rioya qilinsa, mutatsiya davri bir qancha yengil o'tishiga yordam beradi.

5-sinfda tayanch-ta'lim bosqichi boshlanadi. 5-sinfda o'quvchilar psixologik tomondan ancha o'zgargan bo'ladi. Ularning hayotiy tajribalari boyigan, konkret fanlarni o'rganish jarayonida ilmiy dunyo qarashlari tarkib topayotgan davr bilan farq qiladi. Fikrlash bir muncha rivojlanganligi sababli, ko'rgazmali idrokdan ko'ra so'z orqali mantiqiy idrok qobiliyatlari rivojlana boshlandi. Shunga muvofiq o'rganiladigan asarlar ham janr, hajm va badiiy mazmun jihatidan tobora jiddiylashib boradi. Ovoz diapazoni (Do<sup>1</sup> - Mi<sup>2</sup>) ma'lum miqdorda rivojlangan bo'ladi. 5-sinf o'quvchilarning quyi sinflarda olgan vokal-xor malakalari takomillashadi, bu malakalar ashulaning to'g'ri va ta'sirli aytilishini ta'minlaydi, bolalar ovozining yaxshilanishiga va parvarish qilinishiga yordam beradi. Vokal-xor mashqlari sifatida xalq quyi va qo'shiqlaridan parchalar kuylash va shu vosita bilan milliy musiqa ohanglari xususiyatlarini bolalar xissiyotiga singdirib borish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi o'zi qo'shiqni ifodali qilib kuylab berishi va o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyatlarini o'stirish kerak:

- 1.Sof unisonga erishishi
2. Musiqiy jumlanı boshıdan oxırıgacha to'la idrok etıshı,
- 3.Notaga qarab qobiliyatıga ega bo'lishi kerak.

O'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab, nixoyatda oddiy mashqlardan, qo'shiq naqoratlaridan, kuylash uchun qo'lay bo'lgan lادلardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Eng oddiy va murakkab mashqlarnı ham, asosan solfedjio qilish yo'li bilan o'rganish va kuylash lozim, chunki bu jarayonda notalarnı nomlari va balandligi holatini ham anglab boriladi. Ikki ovozlikda kuylashni boshlashdan oldin, sinf taxtasida yoki plakatlarda ko'rsatib notalar nomini va tovushning balandlik holatini aniqlab, ovoz chiqarib bir necha marta takrorlab so'ng, kuylash zarur. Dastlab katta tertsiya, sof kvarta, sof kvinta, katta seksta singari ohangdosh intervallar, mashqlar uchun asos bula oladi. Chunki, bu intervallar kuylash uchun qo'lay yoqimli va o'quvchilar xotirasida saqlanishi oson. Intervallar faqat ikki ovozda kuylanmasdan, balki tinglash uchun ijro etib, ularda yuqori va pastki tovushni aniqlashni topshirish lozim. Bunday savollar o'quvchilarnı garmonik o'quvini kuchaytiradi, intervallarnı ongli ravishda o'zlashtirish tuyg'usi paydo bo'ladi. Ikki ovozlik qo'shiqlarnı kuylash uchun, kichiq kanonlardan boshlab kattarok xajmdagi jo'rsiz (akapella) asarlarga o'tish, o'quvchilarnı bir-birini diqqat bilan eshitib, kuylash qobiliyatlarini o'stiradi. Ikki ovozli qo'shiqlarnı tanlaganda, ikki ovozli elementi bor, kichiq xajmdagi asarlar maqsadga muvofiqdir. Har qaysi ovozning ohanggi aniq ravshan, mustaqil bo'lishi kerak. Pastki ovoz quyı shirali, xushohang, yaxshi esda qoladigan bo'lishi ayniqsa muhimdir. Ovoz partiyalarining diapazoni, seksta septima oktavalı xajmidan oshmaydigan qo'shiqlar aytishga ayniqsa qo'laydir.

Qo'shiqlar o'rtacha tempda yozilgan bo'lishi kuylash uchun foydali va osondir. Ikki ovozli qo'shiqlarnı ohanglari imitatsiya jihatidan shakli yengil va oson bo'lishi kerak. O'zbek xalq qo'shiqlarnı o'qıtuvchi ikki ovozlik qilib, qayta ishlab o'rgatishi o'quvchilarnı talaffuzi intonatsiyasi va xotirasini rivojlantiradi. Ikki ovozlikni kuylashda, bir ovoz cho'zib, ikkinchi ovoz harakatlashishi ham, bolalarnı eshitish qobiliyatlarini ustiradi. Keyinchalik esa, ovozlarnı parallel bir tomonga yo'nalishi, ovozlarnı qarama-qarshi yo'nalishi va har xil murakkabrok holatida ham kuylash

mumkin bo'ladi. Musiqa darsida ikki ovozda kuylash uchun bolalar ovozini diskant va altga bo'lish shart emas, balki taxminiy bo'lishi ham mumkin. Chunki ikkinchi, uchinchi ovozni kuylaganda bolalarni musiqa o'quvi ko'proq o'sadi. Shuning uchun ovozlarni galma-gal almashtirib kuylatish lozim. Buning uchun albalta dastlab, sof unisonga erishiladi. So'ngra, ikki ovozli asarlarga utiladi. Beshinchi sinf bolalarning ovozlari yangroq ovoz apparatlari shakllangan, ko'nikma va malaka ega bo'lganligi sababli ikki ovozli qo'shiqlarni o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim jarayonida 5-sinf o'quvchilar – o'zbek xalq cholg'u orkestri, xor san'ati simfonik orkestr, vokal-simfonik asarlar, saxnaviy musiqa asarlari, raqs san'ati, musiqali drama va komediyalar, opera san'ati, o'zbek musiqasida opera janri haqidagi bilimlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, musiqa savodi darsining ko'proq ta'limiy funksiyasini bajarmogi lozim. Shuning uchun musiqa savodiga doir beriladigan har bir yangi atama, tushuncha yoki nazariy element musiqa faoliyatining barcha turlari amaliyotida qo'llanib, o'quvchining musiqiy bilim doirasini boyitib borishi lozim. Bu esa o'quvchining musiqiy savodxonligi tarkib topishida asosiy ro'l o'ynaydi.

6-sinilarda o'quvchilarda uspirinlik davri boshlanib, ular tabiat va hayot qonunlariga jiddiy qiziqadilar. Psixologik-fiziologik jihatdan organizmda aktiv o'zgarishlar ro'y beradi. Bo'yining usishi, ovozining o'zgara borishi fanlarga qiziqishi, mustaqil fikr yurita olishi, qobiliyatlari rivojlanadi. Natijada bosh miya yetarli darajada ozuqa ololmay, horg'inlik holatlari ro'y beradi. Bu davrda o'qituvchi ularga jiddiy va mehribon munosabatda bo'lish, do'stona suhbatlashishi talab etiladi.

- 1.Darsning barcha faoliyatlari vositasida doimiy ravishda o'quvchilarning musiqaviy iqtidorini rivojlantirib borish.
- 2.Vokal - xor malakalarini rivojlantirib, yakka jamoa bo'lib kuylash, ikki ovozli kuylashga o'rgatish
- 3.Musiqa idrokini rivojlantirish va asarlarni tuzilishi, shakli, ladi, mualliflari, tempi haqida fikr yuritishga o'rgatish va estetik zavqlanish vositasida xotirasi, nutqi, dunyoqarashini o'stirish.
- 4.Musiqa savodidan, oddiy musiqa terminlarini va atamalarini mohiyatini

musiqa amaliyotida bilish va har bir musiqa asarida kuylab borish.

Quyidagi diapazondagi bir va ikki ovozli ashulalarni aytish:

Birinchi ovoz Do<sup>1</sup> Mi<sup>2</sup> (Fa<sup>2</sup>), ikkinchi ovoz Si kich (Lya kich) Do<sup>2</sup>(Re<sup>2</sup>) musiqa o'quvini o'stirish, ovozni parvarish qilish va vokal-xor malakalari hosil etishda maxsus vokal mashqlari, ya'ni uch tovushli, past bosqich yoki yuqori bosqichdagi tovushlar orasida va uning kvinta yoki oktava miqyosidagi qismlarida ashula aytib, bir ovozda asosan, yallalar yoki qoshiqlardan parchalar aytib, «Ovozni maromga solish» katta ahamiyatga egadir. Notaga qarab ashula aytish malakasi ham shu xilda mashq qilish yo'li bilan hosil etiladi. Bu xildagi mashqlar uchun har darsda 3-6 minut vaqt ajratiladi. O'quvchilarni musiqadan savodli qilish xorda ashula aytish bilan mustahkam bog'langan. Musiqadan savodli qilish vazifasi bolalarning musiqa o'quvchini o'stirish asosida ularga ashulaning musiqiy ohangni anglash va tushunishni, ashula so'zlarini to'g'ri aytishni o'rgatishdir. Musiqa sohasida berilgan barcha nazariy ma'lumotlar notaga qarab ashula aytish va mashq qilish jarayonida mustahkamlanadi.

Qo'shiq o'rgatish va musiqa tinglash jarayonida asarlardan parchalar kuylab ovozlarini sozlashi bolalarda qiziqish uyg'otadi. Bunda ijro uslublarini batafsil tushuntirish lozim. Asarlarni tahlil etishda bolalarni aktiv qatnashtirish maqsadga muvofiqdir. Har bir xalqning o'z milliy san'ati mavjudligi, musiqa har bir tarixiy davrning badiiy aksi ekanligi haqida bolalarga aniq tushuncha hosil qilishi lozim. Shu asosda o'zbek musiqasining qisqa tarixi cholg'u asboblari va o'zbek xalq musiqa janrlari, maqomlari mumtoz qo'shiqlari zamonaviy qo'shiqlarini taqqoslab ko'rsatish mumkin.

Masalan: «Shoshmaqom», tojik va o'zbek xalqlarining azaliy birodarlik ramzi ekanligi, ularning ko'p cholg'u asboblari bir xilda ekanligi va boshqa xalqlar foydalanishi mumkinligi haqida, xalq musiqasi asosida yaratilgan kompozitorlik asarlar va zamonaviy musiqa bilan tanishtirib taqqoslash lozim.

Yettinchi sinfda musiqa o'qitish jarayoni yakunlanadi. Unda quyi sinflarda olingan bilim va malakalar chuqurlashadi, takomillashib umumilashadi. Ayniqsa, musiqani badiiy jihatdan mustaqil tinglab, uni mukammal idrok etib, yangi qo'shiqlarni mustaqil o'rgatish, hayotimizdagi musiqa faoliyatiga aktiv katnashishga o'rgatib borish

ishi nixoyasiga yetadi. 7-sinf o'quvchilari fiziologik-psixologik xarakterga ko'ra diqqat e'tiborlari turg'un, dunyoqarashi rivojlangan bo'ladi. Ovoz shakllanishi notekis bo'ladi. Ular mustaqil fikr yuritish hikoya tuzish, musiqaqa doir albom, referatlar, sinf burchaqlari va ko'rgazmali qurollar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchilarning bu ijodiy xususiyatlaridan foydalanib, musiqa san'atiga, musiqa savodiga doir ko'rgazmali qurollar tayyorlash vazifasini topshirishi mumkin. Shuningdek, mashxur bastakorlarga doir albomlar tayyorlashni ham topshirishi mumkin. Vokal-xor ishlari: qo'shiq o'rgatish jarayonida ularni ovozlarini asrab tarbiyalash ishi murakkablashadi. Chunki, bu yoshda mutatsiya davri kuchayadi. Ayniqsa, o'g'il bolalarda ovoz boylamlari yo'g'onlashib, ovoz registri bir oktavaga pasayadi. Natijada o'quv va ovoz o'rtasidagi koordinatsiya buzilib, ba'zan bolalar intonatsiyasini aniq kuylay olmaydilar. Bunday paytda o'qituvchi kuylash uchun qo'lay yo'llarini tushuntirishi kerak. Ovozni toliqtirmasdan erkin, ravon kuylashga o'rgatishi kerak. Mutatsiya davrida bolalar ovozida kun sayin o'zgarish ro'y beradi. Buni hisoblab olib ovoz partiyasini ko'paytirish lozim. Yoki ovozlarni transpartirovka qilib pastki tovushlarga tushirish lozim. Ovoz diapazoni birinchi ovozlarda ( $D_0^1$ - $Mi^2$ ) - 2-ovozlarda esa - (Si kich- $Re^2$ )gacha bo'ladi. Tajribalar mutatsiya davrida ovozlarni to'g'ri taksimlash, ovozlarni tekis chiqishi va qiyinchiliklarga duch kelmaslikka olib keladi. Tanlangan qo'shiqlar qahramona, lirik, estrada, o'zbek xalq qo'shiqlaridan bo'lsa, o'quvchilarda o'rganishga qiziqish uyg'otishi lozim. Ba'zi bir qo'shiqlarni solist yordamida ham o'rgatish mumkin. Ashula aytganda dinamik belgilari, tempi, badiiy ijrosiga erishish zarur. Yettinchi sinflarda musiqa savodini oldingi bilimlarga tayanib, notaga qarab kuylash, intervallar, o'lchovlar, dinamik belgilar, parallel major va minor ladlari kabi mavzularda alohida to'xtab o'tib, musiqali misollar keltirishimiz mumkin. Musiqali misollarni kuylaydigan qo'shiqlardan tinglangan musiqiy asarlar asosida va o'zbek xalq qo'shiqlari misolida keltirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari ular musiqiy asarning shaklini ham bilishlari kerak. Musiqa tinglash bir muncha murakkablashadi. Chunki, darsning asosiy qismi tinglash jarayonida o'tadi. Xalq qo'shiqlari, maqomlar, mumtoz xalq musiqasining ma'naviy uslubi kabi bilimlarga ega bo'lishlari va mustaqil fikr yurita olishlari kerak. Musiqani badiiy jihatdan mustaqil

tinglab, uni mukammal idrok etib, musiqani tuzilishi, musiqa adabiyot savodi bilan, yangi qo'shiqlar bilan tanishtirish, ularni haziyotimizdagi ahamiyati haqida bilimlarni o'rgatish nixoyasiga yetadi. Chunki, 7-sinf o'quvchilarini dunyo qarashi rivojlangan bo'ladi, ammo ovoz apparatlarini shakllanishi notekis bo'ladi. Ularga mustaqil fikr yuritish, hikoya tuzish, musiqaga doir referatlar, sinf burchaqlar, tadbirlar o'tkazish va ko'rgazmali qurollar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchilarning bu ijodiy xususiyatlaridan foydalanib musiqa san'atiga doir vazifalar topshirishi lozim. Lekin vokal - xor ishlarida, qo'shiq o'rgatish, ovoz sozlash jarayonida ularni ovozlarni extiyot qilish, metodik to'g'ri yo'llanma berish kerak. Ba'zi paytlarda, bolalar bilan suhbatlashish, ota-onalarni taqlif etib, doktorga farzandining sog'ligi haqida murojaat qilishni taqlif qilish lozim. Mutatsiya davrigacha o'g'il va qiz bolalarda ovoz apparatining tuzilishi o'xshash bo'lib, ular bir-biridan uncha farq kilmaydi. Mutatsiya davrida esa ularning ovozlari o'zgarib, o'g'il bolalarda ovoz registri jihatidan bir oktava pasayib, yo'g'onlashadi. Qiz bolalarda esa registr o'z o'rnida qolib, ovoz kuchi, tembrining mayinligi deyarli saqlanib qoladi. Shu boisdan, o'g'il bolalarda mutatsiya aktiv va sezilarli darajada, qiz bolalarda esa osoyishta va tekis o'tadi. Natijada ba'zi o'g'il bolalar, ashula aytganda sozga tusholmay qiynaladilar. Ba'zilari esa kuchanib kuylaydilar. Vu davrda o'g'il bolalar ovozi shartli ravishda erkakcha ovozga, qiz bolalar ovozi esa balogatli xotin-qizlar ovoziga asta-sekin uta boshlaydi. O'g'il bolalar tomogida ovoz boylamlari yo'g'onlashadi, qizaradi, shishlar paydo bo'lishi mumkin. Natijada diapazon qisqarib, yuqori pardalarda kuylash oqirlashadi. Tez charchash holatlari paydo bo'ladi. Mutatsiya davrida o'g'il va qiz bolalarga ashula o'rgatish mas'uliyat talab etadi. Qo'shiqlarni bolalarning ovoz imkoniyatlariga moslashtirib dars davomida, ularning ovozlarni asrab-avaylab o'rgatish lozim. Ovoz partiyalarini aniq ajratib, ikki ovozda ashula aytirish, ovoz tarbiyasining muhim vositasidir. Bolalarning intizomida ham o'zgarishlar paydo bo'ladi. Emotsional uygonishlar, organizmdagi garmonik o'zgarishlar darsga nisbatan qiziqishni pasayishiga sabab bo'ladi. Bu davrda o'qituvchi mohirlik bilan musiqiy asarlar mazmunini hayotimiz bilan bog'lab o'tishi, uning vositasida ahloqiy go'zallik tarbiyasini berish dars mazmunini boshqa fanlar bilan bog'lab olib borishi lozim.

Vokal-xor ishlari va musiqa tinglash ishlarini amalga oshirishda quyidagilarda olingan bilim va malakalariga va hayotiy tajribalarga suyanib ish tutish yaxshi natija beradi. Qo'shiq o'rgatish metodlari 7-sinfda ham umumiy metodlaridan ko'p farq qilmaydi. Musiqa tanlashda esa mazmun jihatdan ancha murakkab bo'lgan asarlar utiladi. O'quvchilar, o'zbek xalq qo'shiqlari, maqomlari, mumtoz ashulalari, yalla va laparlari, xalq musiqasining mahalliy uslublari bilan tanishib, tuzilish mazmunini, tarixini o'rganadilar. Mumtoz ashulalar kuylab, maqomlar kuylab, o'zbek xalq musiqasini durdona asarlaridan zavq oladilar.

O'rganiladigan asarlar badiiy va g'oyaviy yaxlit taassurot qoldirish uchun ularni ma'lum mavzu asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday mavzular bir yoki bir necha dars asosida musiqa qonuniyatlarini ijrochilik turlari va uning ifoda vositasi bo'lgan ma'lum mazmun bilan bog'lanishi mumkin. Masalan: «Lad nima», «Mahalliy musiqa uslublari», «Maqom». «Katta ashula janri». «Shoshmaqom» shular jumlasidandir. O'qituvchi tanlagan musiqa asarlarini muayyan tartibga solgan xolda, o'quvchilarni mutatsiya davrida ovoziga ziyon yetmasligi uchun ularni ovoz diapazoni, ishtiyoq va zavqi, musiqa va ashula sohasidagi tayyorligi e'tiborga olinishi lozim. O'quvchilarga musiqiy tarbiya berishning negizi xorda ashula aytishdir. Ashula aytganda ovozni parvarish qilish va maxsus vokal-xor mashqlari, ya'ni uchtovushli, past bosqich yoki yuqori bosqichdagi tovushlar orasida kvinta yoki oktava miqyosidagi qismlarida jo'rsiz mashqlar, qo'shiqlardan parchalar aytib ovozni sozlab bir maromga solish katta ahamiyatga ega. Musiqa tinglaganda va xor bo'lib qo'shiq aytganda, musiqa sohasidan olingan barcha nazariy ma'lumotlarni mashq qilish jarayonida mustahkamlaydi. Qo'shiq o'rgatish jarayonida o'qituvchi asarni ifodali ijro etib asar haqida qisqa qiziqarli obrazli kirish so'zi, asarning janri mazmuni ifoda vositalari haqida suhbatlar o'tkazishi muhim ro'l o'ynaydi. Yetti yillik o'qish davrida, musiqa sohasida ish olib borish natijasida, o'quvchilar musiqa savodxonligiga ega bo'lib, musiqani ongli tahlil qila oladigan, yirik musiqa asarlarini radio va televideniya orqali, musiqa darslarida, kontsertlarda mehr bilan tinglaydigan, badiiy havaskorlik to'garaklarida ishtirok etadigan va musiqani chin dildan sevadigan insonlar bo'lib yetishadilar.



## XULOSA

O'quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarining nazariy asoslari haqida bilimlarni o'zlashtirish musiqa madaniyati darslarida, darsliklarida berilgan har bitta mashq o'quvchilar uchun o'ziga xos musiqa savodi bo'lib, ularni to'g'ri bajarish o'qituvchiga ham, o'quvchilarga ham baravar tegishlidir. Musiqa savodiga o'rgatish mavzu jihatidan o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos yangicha yondashishni taqozo etadi.

1. Musiqa ta'limida musiqa o'qituvchisiga qo'yilgan pedagogik talablari nazariy qoidalarga dalil-isbot tarzida keltirilgan bo'lsa, endilikda o'quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarini e'tiborga olish orqali nazariy qoida-xulosalar chiqarish ko'zda tutilgan. Bundan ko'zlangan maqsad musiqa madaniyati qonuniyatlarini teran o'zlashtirish, so'z sehrini o'quvchilarning qalbdan his etishlariga, amalda undan to'g'ri va unumli foydalanishlariga erishishdir.

2. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarini e'tiborga olish faqat yaxshi o'zlashtiruvchilargagina emas, balki barcha o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, muammoli yondashuv qo'yilayotgan muammoga qiziqtirishi, eng real farazni tanlashga olib kelishi kerak.

4. O'quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va baolog`at yoshidagi mutatsiya davri xususiyatlarini o'rganish ishlari o'quvchilar bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatish, axborot olish, ularga mustaqil fikrlash imkonini beradi.

5. O'quvchilari musiqiy tafakkurini o'stirishda musiqa ta'limida shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish o'quvchilarni muammolarni hal etishga jalb qilish o'quvchilarning bilish faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirishga xizmat qiladi, ta'lim jarayoniga ijodiylik bag'ishlaydi va mustaqil fikrlash darajasining rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

6. O'quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarini o'rganish o'quvchilarning musuqiy cavodxonligini oshirishda hotaga qarab ko'ylash usullari musiqa darsliklarida berilgan

asrlarni bajarish jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashish o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

7. Umumta`lim maktablarida o`quvchilarning musiqiy psixologik va balog`at yoshidagi xususiyatlarini e`tiborga olish ishlari ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi fan asoslarini puxta, ongli o'zlashtirish bilan birgalikda mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun ham xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida ta'lim metodlaridan o'rinli va to'g'ri foydalanish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarga mustaqil fikrlash uchun ham imkon beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. –20-29 b.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.- 31-61 b.
3. Karimov I.A. Istiqqol va ma'naviyat. –Toshkent: O'zbekiston, 1995.
4. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-tom. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. -384 b.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Barkamol avlod orzusi. -Toshkent: Sharq, 1999. – 8-30-b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -Toshkent: O'zbekiston, 1998.
7. A. Karimov “Buyuk kelajagimiz huquqiy kafolatlari” “Toshkent Sharq” nashriyoti 1993 yil.
8. Musiqa ta'lim va ma'naviyat “Toshkent” 1998 yil
9. Ta'lim taraqqiyoti “Sharq” nashriyoti matbaa konserti 1999 yil.
- 10.G.M. Sharipova “Musiqa tarbiyasi metodikasi” fanidan ma'ruzalar matni. “Toshkent” 1997 yil.
11. “Ta'lim taraqqiyoti” O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi 6-maxsus soni. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. “Sharq” nashriyoti 1999 yil.
12. O. Fayziyeva. O'quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirishi yo'llari. Toshkent 1992 yil.
13. Maktabda musiqqa metodikasidan ma'ruzalar matni. 1990 yil.
14. H.Nurmatov. N. Norxo'jayev, A. Mirrahimov “Musiqa” 3-sinf uchun darslik G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent 2001 yil.
15. N.G. Dmitriyeva. O. Chersivanenko. Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkola. Moskva. 1990 goda.
16. M. Ochilov “Muallim qalb me'mori” Saylanma. Toshkent. O'qituvchi 2000 yil.

17. Raxmatjon Tursunov. “Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti” “Ma’rifat-Madadkor” nashriyoti Toshkent 2002yil.
- 18.“Musiqqa ijodiyoti masalalari” Uzbekiston bastakorlar uyushmasi “Katortol-Kamolot”nashriyoti. Toshkent 1997 yil.
19. Ergash Ochilov. “Shoda-shoda marvarid” Uzbek xalk qo`shiqdari. “Shark” nashriyoti. Toshkent 2006 yil.
20. Urozali Toshmatov “Folklor qo`shiqdari” A. Qodiriy nomli xalk me’rosi nashriyoti Toshkent 2009 yil
- 21.“Uzbekiston musika san’ati ustalari” Axmad Odilov. Toshkent-2001 yil.
22. A. Mansurov, D. Karimova. “ 5-sinf musika darsligi”. Toshkent 2004 yil.
23. O. Ibroximov, J. Sadirov.“ 7-sinf musika darsligi” Toshkent 2001 yil.
24. Shimanovskiy K. Tanlangan maqola va xatlar. L., 1963, 80–bet.
25. Asafev B. V. “Zamonaviy rus musiqashunoslik va uning tarixiy vazifalari”.— De Musica, 1–son. L., 1926, 17–bet.
26. Internet ma’lumotdari
  - WWW.Ziyonet.
  - Pedagog.uz.